Bakteriyalami, ulaming faoliyati natijasida vujudga keladigan jarayonlarga qarab bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin.

**1.Chirituvchi bakteriyalar.** Azotli organik moddalarning bakteriyalar tomonidan parchalanishiga ***chirish*** deb ataladi. Barcha o‘simlik va hayvonlar o‘lganidan so‘ng bakteriyalar faoliyati natijasida parchalanadi — chiriydi. Chirish jarayonini vujudga keltiruvchi bakteriyalar ***chirituvchi bakteriyalar*** deyiladi.

Tabiatda tuproq hosil bo‘lishida chirituvchi bakteriyalaming ahamiyati juda katta. Tuproqda yashaydigan chirituvchi bakteriyalar ***tuproq bakteriyalari*** deyiladi. Chirituvchi bakteriyalar bo‘lmaganda ver vuzi turli xil qoldiqlar bilan to‘lib, tirik o‘simliklar va hayvonlar uchun ovqat ham joy ham qolmagan bo’lur edi. Kuzda tuproqqa solingan go‘ng chirituvchi bakteriyalar faoliyati ta’sirida ko‘klamgacha chirindiga, so‘ngra madaniy o‘simliklar uchun oziq bo‘ladigan mineral tuzlarga aylanadi. Chirish jarayonida hamisha issiqlik ajralib chiqadi. Bu issiqlikdan issiqxonalami isitish uchun foydalaniladi.

Chirituvchi bakteriyalar ekma o‘simliklarni kasallantirib, xo‘jalikka katta zarar yetkazadi. Chirigan oziq-ovqat mahsulotlarida qo‘lansa hid va odamni zaharlaydigan zaharli moddalar paydo bo‘ladi. Oziq-ovqat mahsulotlarini va ho‘l mevalami chirituvchi bakteriyalar ta’siridan saqlash uchun ular turli usullar bilan konservalanadi, muzlatiladi, tuzlanadi, quritiladi. Bunday sharoitda bakteriyalaming oziq-ovqat mahsulotlarida yashashi uchun zarur sharoit bo‘lmaydi va ular nobud bo‘ladi.

**2.Achituvchi bakteriyalar.** Bu bakteriyalaming faoliyati natijasida oziq-ovqat mahsulotlari chirimaydi. Azotsiz organik moddalarning bakteriyalar yordamida parchalanishiga ***achish*** deb ataladi. Oziqlanish usuliga ko‘ra achituvchi bakteriyalar **saprofit** hisoblanadi. Ular sutda, yangi sersuv sabzavotlarda, o‘tlaming barg va poyalarida yashaydi.

Tabiatda achishning turlari ko‘p. Achishning eng muhim xillaridan biri sut kislotasining achishidir.

Bu jarayonda sut kislotali achishga sabab bo‘ladigan bakteriyalar faoliyati vuiudga keladi. Sut kislotali achish ja rayonidafparchalanayotgan shakar sut kislotasiga aylanadi, hosil bo‘lgan sut kislotasi esa boshqa chirituvchi bakteriyalaming o‘sishiga va ko‘payishiga to‘sqinlik qiladi. Shu tufayli sut kislotali achishdan sut mahsulotlari: qatiq, pishloq, suzma tayyorlashda foydalaniladi.

Sut kislotali achish pomidor. bodring va karamlarni konservalashda yem – xashak o’simliklaridan silos bostirishda ham keng qo‘llaniladi.

Sirka kislotali achish sirka kislota bakteriyalari faoliyati natijasida sodir bo’ladi Ovqatga ishlatiladigan yuqori navli sirkalar, spirt yoki vinolarni sirka kislotali achitish yo‘1i bilan olinadi.

**3.Tugunak bakteriyalar**.Chirituvchi va achituvchi bakteriyalardan tashqari tuproq yoki o‘simliklar ildizida yashab, havodagi erkin azotni o‘z- lashtiradigan bakteriyalar ham bor. Ularga burchoqdoshlar ildizida yashaydigan **tugunak bakteriyalar**ni misol qilib keltirish mumkin.Tugunak bakteriyalaming faoliyati natijasida tuproq azot birikmalari bilan boyiydi.

**IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**4-nazorat ishi.** Yangi mavzuni mustahkamlash maqsadida o’quvchilar bilan **“Intellektual ring”** o’tkaziladi.

Bunda 5 ta o’quvchi ishtirok etadi va ularga 3 tadan savol beriladi. Har bir to’g’ri javob I ball bilan baholanadi. Kam ball to’plagan o’quvchilar birin ketin o’yinni tark etadilar, oxirgi qolgan o’quvchi 5 ball bilan baholanadi va g’olib deb topiladi.

**Intellektual ring savollari**

1. Bakteriyalar qanday tuzilishga ega?
2. Bakteriyalaming yana qanday shakllarini bilasiz?
3. Bakteriyalaming yashashi uchun qanday sharoit kerak?
**4.** Bakteriyalar qanday ko‘payadi va noqulay sharoitga qanday moslashadi?
5, Moddalar aylanishi deb nimaga aytiladi va u tabiatda qanday sodir bo‘ladi?
6. Chirituvchi bakteriyalar qanday oziqlanadi?
7. Tabiatda va qishloq xo'jaligida chirituvchi bakteriyalaming qanday ahamiyati bor?
**8.** Oziq-ovqat mahsulotlari chirituvchi bakteriyalardan qanday saqlanadi?
9. Achituvchi bakteriyalardan xalq xo'jaligida qanday foydalaniladi?
10. Meva qoqilari, quritilgan sabzavot (quritilgan kartoshka, sabzi, piyoz va boshqalar) nima uchun buzilmaydi?
11. Konservalangan mahsulotlar nima uchun buzilmasdan uzoq saqlanadi?

**5-nazorat ishi   Jadval bilan ishlang**

**Tarqatma – 1 (O’qituvchi uchun)**

| Bakteriyalarning hayot faoliyatiga ko’ra guruhlari | Ushbu bakteriyalarning ahamiyati |
|---|---|
| **Chirituvchi bakteriyalar** | Azotli organik moddalarni parchalashi, o’simlik va hayvonlar o’lgandan so’ng ulani chirishi, tuproq hosil bo’lishida ishtirok etishi. |
| **Achituvchi bakteriyalar** | Azotsiz organic moddalarni parchalashi, sut va spirt mahsulotlarni olish, konservalash va silos bostirishda foydalanish |

| | |
|---|---|
| **Tugunak bakteriyalari** | Burchoqdoshlar ildizida yashaydigan bu bakteriyalar havodagi erkin azotni o'zlashtirish xususiyatiga ega |

**Tarqatma – 2 (O'quvchi uchun)**

| Bakteriyalarning hayot faoliyatiga ko'ra guruhlari | Ushbu bakteriyalarning ahamiyati |
|---|---|
| **Chirituvchi bakteriyalar** | |
| **Achituvchi bakteriyalar** | |
| **Tugunak bakteriyalari** | |

**6-nazorat ishi**

**O'qituvchi o'tilgan mavzular bo'yicha qisqa test usulidan foydalanadi**.

**Tarqatma – 1** (o'quvchi uchun)

1.Tugunak bakteriyalari qaysi oila vakllari ildizida yashaydi?

A.Gulxayridoshlar;

B.Ituzumdoshlar;

C.Burchoqdoshlar

2.Spirt yoki vinolar qanday yo'l bilan olinadi?

A.Sut kislotali achish

B.Spirtli achish

C.Sirka kislotali achish

3.Hujayra shakli sharsimon bo'lgan bakteriyalar?

A.Kokklar

B.Batsillalar

C.Spirillalar

4.Bakteriyalar qanday sharoitda sporaga aylanadi?

A.Quyosh nuri va past harorat

B.Havoning quruqligi

C.Hamma javob to'g'ri

5.Bakteriya sporalari ... gacha issiqqa va ... sovuqqa bardosh beradi?

A. $20^0$C, $30^0$C; B. $140^0$C, $253^0$C; C. $200^0$C, $300^0$C;

**Tarqatma – 2 (O'qituvchi uchun)**

1. C 2. C 3. A 4. C 5. B

## V. O’quvchlar bilimini baholash va darsni yakunlash.

Bakteriyalaming tabiatdagi va xalq xo‘jaligidagi ahamiyati juda katta, chunki bakteriyalaming ishtirokisiz tabiatda moddalar almashinuvi sodir bo‘lmaydi. Bakteriyalami, ulaming faoliyati natijasida vujudga keladigan jarayonlarga qarab bir necha guruhlarga bo‘lish mumkin: Chirish, achish, tugunak bakteriya, parazit bakteriyalar.

O’quvchilar erishgan natijalariga, faolliklariga qarab izohli baholanadi, bahollari kundalikka qo’yiladi va imzolanadi.**Uyga vazifa: mavzuni o’qish.**Bakteriyalar bo’limini o`qib kelish va rasmni chizish.

**MAVZU:”KASALLIK PAYDO QILUVCHI BAKTERIYALAR”**

| | | |
|---|---|---|
| **(6-sinf) Botanika** | Darsning maqsaqdi va azifalar | **1Ta`limiy maqsadi** :O`quvchilarni kasallik paydo qiluvchi bakteriyalar bilan tanishtirish.<br>**2.Tarbiyaviy maqsadi**. O`quvchilarni ilmiy dunyoqarasnini kengaytirisn ,ekologik va iqtisodiy,gigiyenik tarbiya berish .<br>**3.Rivojlantiruvchi maqsadi**:O`quvchilarning Darslik ustida mustaqil ishlash ko`nikmalarni rivojlantirish ,kasallik paydo qiluvchi bakteriyalarga oid bilimlarni o`z hayotida qo`llay olish malakalarini shakllantirish.<br>**4.Kasbga yo`naltiruvchi maqsadi.** O`quvchilarni agronom,ekolog ,paleontolog kasblariga yo`llash. |

| | | |
|---|---|---|
| **II** | **O`quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi .** | 1.Darsning shakli:<br>2.Metod:<br>1.Insert metodi .<br>2.Klaster metodi .<br>3.Test topshirig`i.<br>4.O`rgimchak to`ri.<br>5.Jadvalda ishlash(kichik guruhlarda).<br>6.Biodiktant.<br>7.Sayohat metodi.<br>3.Darsni jihozlash:<br>Mavzuga oid ko`rgazmalar .<br>1.Savollar.<br>2.Tarqatma materiallar.<br>3.Kalava ip.<br>4.Tezkor savollar.<br>5.Kasallik paydo qiluvchi bakteriyalarga oid rasmlar ,proektor,ekran,"Botanika"o`quv filmi.<br>4.Darsning usuli:<br>Hamkorlikda o`qitish texnologiyasi (kichik guruhlarda o`qitish metodi)<br>5.Baholash reyting tizimi:(5 Ball) |

**DARSNING BOSQICHLARI**

| | **Darsning bosqichlari** | **Vaqt (mih)** | **O`qituvchi Faoliyati** | **O`quvchi faoliyati** |
|---|---|---|---|---|
| **1**<br><br><br><br><br><br>**2.** | **Tashkiliy Qism**<br><br><br><br><br><br><br><br>**O`tilgah mavzuni so'rash va xulosalash.** | 3<br><br><br><br><br><br><br><br><br><br>12 | 1.Sinf o`quvchila-rini darsga tayyorlash.<br>2.Salomlashish.<br>3.Davomatni aniqlash.<br>O`qituvchi o`til-gan mavzuni quyi-dagi nazorat top-shiriqlari yorda-mida so`raladi .<br>1-Nazorat topshi-rig`i "Insert"tex-nologiyasi.<br>2-Nazorat topshi-rig`i"Klaster"da ifoda etish.<br><br><br>3.Nazorat topshi-rig`i "Test".<br>4-Nazorat topshi-rig`i "O`rgimchak | 1.Darsga tayyorlana-di.<br>2.Salomlashadi.<br><br><br>O`quvchilar berilgan topshiriqlarga javob beradilar.<br>1-nazorat topshirig`i-dagi savollarga javob beradilar.<br>2-nazorat topsirigida nomlari berilgan bakteriyalarning oziqlanish turlariga ko`ra klasterda ifoda etadi.<br>3-nazorat topshirig`i dagi "Test"savollariga ja-vob belgilaydilar.<br>4-nazorat topshirig`i |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | to`ri"metodi yor-damida bir-birla-riga savol-javob bilan olgan bilim va ko`nikmalari mustahkamlab boriladi. | "O`rgimchak to`ri" yordamida mavzuni mustahkamlaydilar. |
| **3.** | **Yangi mavzu bayoni.** | 15 | O`quvchilarni yangi mavzuni rejasi bilan ta-nishtiradi va mav-zuni tushuntiradi<br>Bunda suhbat usulidan foydalaniladi. | Yangi mavzu va uning rejasini dafta-riga yozib oladilar .<br>O`quvchilar kichik guruhlarga bo`linadi.<br>O`qituvchi hamkor-ligida yangi mavzu-ni o`zlashtiradilar. |
| **4.** | **Yangi mavzuni mustahkamlash** | 1 2 | O`qituvchi o`quvchilar-ni yangi mavzu bo`yicha o``zlashtirgan bilimlari-ni 5-nazorat topshirig`i kichik guruhlarda ishlash.<br><br>6-nazorat topshirig`i "Biodiktant"<br><br>7-nazorat topshirig`i "Sayohat"metodi yorda-mida mavzuni mustahkamlaydilar.<br>Bunda o`qituvchi o`quv-chilarga xayolan bakte-riyalar olamida sayohat qilishga chaqiradilar | O`quvchilar berilgan nazo-rat topshirig`iga javob beradilar.<br>5-nazorat topshirig`i "Jad-valda ishlash"topshirig`ini o`quvchilar guruhlarda bajaradilar.<br>6-nazorat topshirigini gu-ruhlarda bajaradilar.<br><br>7-nazorat topshirigida o`quvchilar xayolan bakteriyalar olamiga sayohatga chiqib,bakteriya-lardagi xususiyatlarni so`zlab beradilar. |
| **5.** | **Darsni Yakunlash.** | 3 | 1.Yangi mavzuni xulo-salaydi.<br>2.Uyga vazifasini beradi.<br>3.O`quvchilarning dars-da erishgan natijalarini izohli e`lon qiladi va kundaliklariga qo`yadi.<br>4.Dars yakunlanligini O`quvchilarga aytadi. | 1.Yangi mavzuni o`qituvchi hamkorligida xulosalaydi.<br>2.O`z natijalari bilan tanishadilar.<br>3.Natijalarini kundalik daftarlariga qo`ydiradilar.<br>4.Uy ga vazifasini kundaliklariga yozadilar. |

3.O`tilgan mavzuni so`rash va xulosalash .
O`qituvchi o`tilgan mavzuni so`rashda "Insert"texnologiyasidan foydalaniladi.
Bunda o`quvchilar bir nechta savollarga javob beradilar.
1.Nazorat topshirig`I "Insert" texnologiyasi.
O`quvchi varianti

| | Savollar | Javoblar |
|---|---|---|
| 1 | Mikroblarni birinchi marta kim o``rgangan? | |
| 2 | Bakteriyalarni o`rganuvchi fan qanday nomlanadi. | |

| | | |
|---|---|---|
| 3. | Bakteriyalar nechta hujayradan Iborat. | |
| 4. | Bakteriyalar hujayrasida qanday qismlar bo`lmaydi? | |
| 5. | Bakteriya hujayrasi o`simlik hujay-rasidan nimasi bilan farq qiladi? | |
| 6. | Bakteriyalar noqulay sharoitda nima hosil qiladi? | |

O`qituvchi varianti

| | Savollar | Javoblar |
|---|---|---|
| 1 | Mikroblarni birinchi marta kim o``rgangan? | 1.300yil muqaddam gollandiyalik olim A.Levenguk mikroskop ostida 1-bo'lib ko'rgan. |
| 2 | Bakteriyalarni o`rganuvchi fan qanday nomlanadi. | 2. Mikrobiologiya. |
| 3. | Bakteriyalar nechta hujayradan Iborat. | 3. Faqat bitta hujayradan iborat. |
| 4. | Bakteriyalar hujayrasida qanday qismlar bo`lmaydi? | 4. Mag'iz. (yadro) |
| 5. | Bakteriya hujayrasi o`simlik hujay-rasidan nimasi bilan farq qiladi? | 5. Xlorofill donachalari yo'qligi bilan. |
| 6. | Bakteriyalar noqulay sharoitda nima hosil qiladi? | 6. Spora hosil qiladi. |

2-nazorat topshirig'i."Klaster metodi.

Nomlari berilgan bakteriyalarning oziqlanish turlariga ko'ra quyidagi klasterda ifoda eting.O'quvchi varianti.




1.Pichan bakteriyalari. 2.G`o`za gommozi bakteriyasi. 3.Achituvchi bakteriyalar. 4.Chirituvchi bakteriyalar. 5.Sil bakteriyalari. 6.Terlama bakteriyalari.

1.Saprofit bakteriyalar: 1, 3, 4.

2.Parazit bakteriyalar: 2, 5, 6.

3.Nazorat topshirig`I "Test" shaklida .
1.Tabiatda tuproq hosil bo`lishida qaysi bakteriyalarning ahamiyati katta?
A.Chirituvchi. B.Achituvchi. D.Tugunak. E .Parazit.
2.O`simliklar,hayvonlar o`lgandan so`ng ularni parchalovchi bakteriyalarni aniqlang.
A.Chirituvchi. B.Tugunak. D.Achituvchi. E.Parazit.
3.O`simliklar ildizida yashovchi bakteriyalarni aniqlang.
A.Parazit. B.Tugunak. D.Achituvchi. E.Chirituvchi.
4.Qatiq,pishloq,suzma tayyorlashda qaysi bakteriyalardan foydalaniladi.
A.Chirituvchi. B.Achituvchi. D.Tugunak. E.Parazit.
5.Pichan bakteriyasi shakliga ko`ra qaysi bakteriyalarga kiradi.
A.Batsilla. B. Kokk. D. Spirilla. E.Vibrion.
6.Bakteriyalar yashashi uchun qanday omillar zarur.
A.Yorug`lik, namlik. B.Oziq, qulay harorat.D.Oziq, namliik, tuproq. E.Yorug`lik, namlik, oziq.
7.Bakteriyalarga halokatli ta`sir etuvchi omillarni aniqlang.
A.Quyosh nuri . B.O`ta past harorat. D.Havoning quruqligi. E.Barcha javoblar to`g`ri.
8.Bakteriya hujayrasini to`ldirib turuvchi suyuqlik nima deyiladi.
A.Hujayra shirasi. B.Vakuola suyuqligi. D.Sitoplazma.
9.Havodagi erkin azotni o`zlashtiradigan bakteriyalarni aniqlang.
A.Tugunak. B.Parazit. D.Achituvchi. E.Chirituvchi.
10.Pomidor,karam,bodring tuzlashda qaysi bakteriyalar faoliyati zarur.
A.Achituvchi. B.Tugunak. D.Parazit. E.Chirituvchi.
11.Oziq-ovqat mahsulotlarini buzib, ularda zaharli moddalar paydo qiladigan bakteriyalarni aniqlang. A.Tugunak. B.parazit. D.Achituvchi. E.Chirituvchi.
12.Qaysi bakteriyalar tuproqni azotli birikmalarga boyitadi.
A.Chirituvchi. B.Tugunak D.Achituvchi. E.Tugunak.
13.Kasallik keltirib chiqaruvchi bakteriyalarni aniqlang.
A.Tugunak. BAchituvchi. D.Parazit. E.Chirituvchi.
14.Vino,spirt,sirka ishlab chiqarishda qaysi bakteriyalardan foydalaniladi.
A.Chirituvchi. B.Achituvchi. D.Tugunak. E. Parazit.
15.Sutda,yangi sabzavotlarda,o`tlarning bargi, poyasida qaysi bakteriyalar yashaydi.
A.Achituvchi. B.Tugunak. D.Parazit. E.Chirituvchi.
O`qituvchi varianti: "Test"topshirigining javob (kalit) varianti

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| A | A | B | B | A | B | E | D | A | A | E | B | D | B | A |

4.Nazorat topshirig`I "O`rgimchak to`ri" metodi. Bunda o`quvchi savol berib o`quvchilarga Kalavani otadi. Savolga javob bergan o`quvchi o`tiradi,savolga javob berolmagan o`quvchi "O`rgimchak to`ri"ga tushadi,o`rniga o`tirmaydi.

**O`quvchi varianti:**

1.Chirituvchi bakteriyalar qanday oziqlanadi?
2.Tabiatda va qishloq xo`jaligida chirituvchi bakteriyalarning qanday ahamiyati bor?
3.Oziq-ovqat mahsulotlari chirituvchi bakteriyalardan qanday saqlanadi?
4.Achituvchi bakteriyalardan xalq xo`jaligida qanday foydalaniladi?
5.Meva qoqilari,quritilgan sabzavotlar(kartoshka,sabzi,piyoz va boshqalar) nima uchun buzilmaydi.
6.Konservalangan mahsulotlar nima uchun buzilmasdan uzoq saqlanadi?
O`qituvchi variant:
1.Azotli organik moddalar bilan oziqlanadi.
2.Tabiatda tuproq hosil bo`lishida chirituvchi bakteriyalarning ahamiyati juda katta.
3.Oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash uchun ular turli usullar bilan konservalanadi,muzlatiladi, tuzlanadi,quritiladi.

4.Achituvchi bakteriyalar faoliyatidan qatiq,pishloq, suzma tayyorlashda, pomidor va karam-Larni konservalashda,yem-xashak o`simliklaridan silos qilishda, spirt,sirka vino olishda foydalaniladi.
5.Quritilgan meva qoqilar, sabzavotlarda bakteriyalarning yashashi uchun sharoit bo`lmaydi. Shuning uchun Buzilmaydi.
6. Konservalangan mahsulotlarda bakteriyalarning yashashi uchun sharoit bo`lmaydi va ular nobut bo`ladi.
O`tilgan mavzini so`rash va xulosalash.
O`quvchilar mana sizlar bakteriyalarning tuzilishi va hayoti, ularning tabiatdagi va xalq xo`jaligidagi ahamiyati haqidagi bilimlarga ega bo`ldingizlar.

Yangi mavzuda yana ham bakteriyalar haqida bilimlaringizni mustahkamlab borasizlar, o`zlaringiz qiziqqan ma`lumotlarga ega bo`lasizlar.

**Yangi mavzuni bayoni:**

**Mavzu: Kasallik paydo qiluvchi bakteriyalar.**

**Reja:**

**1.** Parazit bakteriyalar**.**

**2.** Parazit bakteriyalar keltirib chiqaruvchi kasalliklar.

**3.** Kasallikning yuqishi.

**4.** Kasallik keltirib chiqaruvchi bakteriyalarga qarshi kurash choralari.

**5.** G`o`za gommozining g`o`zaga yuqishi.

**6.** G`o`za gommoziga qarshi kurash choralari.

**Parazit bakteriyalar.** Ayrim bakteriyalar tirik o`simlik, hayvon va odam organizimida, ular hujayrasida yashab oziqlanadi. Bunday bakteriyalar parazit bakteriyalar deyiladi. Ularning foaliyati natijasida o`simlik, hayvon va odam organizimida turli kasallik paydo bo`ladi. Shu bois bu bakteriyalar kasallik paydo qiluvchi bakteriyalar deyiladi. Parazit bakteriyalar, yoki ularning suporalari o`simlik, hayvon va odam organizimiga havo, ovqat, suv, teridagi jarohatlar orqali kirib tirik hujayralar hisobiga yashaydi, tez ko`payadi va uning faoliyati natijasida hosil bo`lgan zaharli moddalar qonga o`tadi. Natijada organizim zaharllanadi va kasal bo`ladi. Parazit bakteriyalar orasida odamlarda sil, terlama, bo`g`ma, vabo, o`lat va boshqa ko`pgina yuqumli kasalliklarni paydo qiladiganlari bor.

**Kasallikni yuqishi.** Yuqumli kasallikni paydo qiluvchi bakteriya kasalligi bemordan sog`lom kishiga o`tsa, unga kasallikning yuqishi deyiladi. Yuqumli kasallik bilan og`rigan bemor sog`lom odam bilan bir idishda ovqat yesa, bitta

o`rin ko`rpada yotib, bitta sochiqdan va kiyim kechakdan foydalansa kasallik bemordan sog` kishiga yuqishi mumkin. Tozzalik va ozodalikka rioya qilinmasa, yuqumli kasalliklarning sababchilari ayniqsa tez tarqaladi. Qaynatilmagan suvda, hususan ariq va hovuzlardagi suvda bir talay bakteriyalar yashaydi. Shuning uchun bunday suvlarni ichish va hatto meva sabzavotlarni yuvish yaramaydi. Buning uchun faqat suv quvurlari orqali keltirilgan yoki qaynatilgan suvdan foydalaniladi. Xavfli kasallik qo`zg`atuvchi bakteriyalar orasida o`pka sili kasalligini qo`zg`atuvchisi tayoqchasimon bakteriyaga qarshi davollash usullari va tegishli dori darmonlar yaratilgan. Vatanimizda sil kasalligini oldini olish va unga qarshi kurashish maqsadida dispanserlar faoliyat ko`rsatib turibdi. Sil sekin rivojlanadigan kasallik hisoblanadi, bakteriyalar orqali tez tarqaladigan xavfli kasalliklarga esa o`lat, vabo, kuydirgi kasalliklarini misol qilib ko`rsatish mumkin. Ular ma'lum turdagi bakteriyalar orqali kelib chiqadi, o`lat kasalligini keltirib chiqaradigan bakteriyalar sichqon va kalamushlarda yashaydigan burgalar orqali tarqaladi.

**Kasallik keltirib chiqaruvchi bakteriyalarga qarshi kurash choralari.** O`rta Osiyoning buyuk olimlaridan biri Abu Ali Ibin Sino yuqumli kasalliklarning suuv va havo orqali tarqalishi haqida bundan ming yilcha ilgari aytib o`tgan edi. Ilgarilari hali odamlar yuqumli kasalliklarning paydo bo`lish sabablari va ularga qarshi kurashish choralarini bilmagan davirlarda terlama vabo va o`lat singari yuqumli kasalliklar epidemiyalaridan goho butun butun qishloqlarning aholisi qirilib ketgan.

Hozirgi davirda mamlakatimizda yuqumli kasalliklar xavfi bartaraf etilgan. Suv va oziq ovqat maxsulotlari doimo qattiy nazorat ostida, shuning dek vodopurod suvlari filtirdan o`tkaziladi. Hozirgi davirda shifokorlar kasallik paydo qiladigan bakteriyalarning hayotini va ularga qarshi kurash choralarini yaxshi biladilar. Kasal odamlar turar joylar, maktablar, bolalar bog`chalari kasallik sababchilari - bakteriyalarni yo`qotish uchun dezenfeksiya qilinadi. Dezenfeksiya ishlarini sanitary epidemiyologik stansiyalar olib boradi. Kasallik qo`zg`atuvchi bakteriyalarga qarshi kurash chora tadbirlaridan biri oldindan **emlash** hisoblanadi.

Emlash orqali ichburug`, terlama, ko`k yo`tal, qoq shol, bo`g`ma, qizamiq va chechak kabi xavfli kasalliklarni oldi olinadi. Odamlarning o`z badanini va kiyim boshini tozza tutishi, turar joy va maktablarning ozoda saqlanishi, xonalarning tez – tez shamollatib turilishi yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishning muhim vositasidir. Kasallik paydo qiluvchi bakteriyalarga qarshi kurashda shahar va qishloqlarni ozoda saqlash katta ahamiyatga ega. Ko`pgina daraxt va bo`talarning havoga maxsus moddalar **(Fitonsidlar)** ajratib turishi va bu moddalarning havodagi kasallik tug`diruvchi bakteriyalarni kuchsizlantirishi olimlar tomonidan aniqlangan. Gledichiya, archa, yong`oq, terak shunday moddalarni ayniqsa ko`p ajratadi. Davlatimiz shahar va qishloqlar va aholi yashaydigan joylarni ko`kalamzorlashtirishga katta etibor bermoqda. Shunday ekan o`quvchilar ham daraxt va bo`ta ko`chatlarini o`tqazishga o`z hissalarini qo`shishlari kerak.

**G`o`za gommozining g`o`zaga yuqishi.** Bu bakteriyalar chigit bilan birga tuproqqa tushib tez ko`payadi va nihol ichiga kirib olib, uning poyasi va barglariga o`tadi. Bakteriyalar yuqqan o`simlik bargalarida qora dog`lar bo`ladi. Kasal burglar quriydi va maydalanib, kukun bo`lib ketadi. Bakteriyalar bilan to`la bo`lgan bu kukun uchib boshqa sog`lom g`o`zalar bargiga tushadi va barg og`izchalari orqali barg eti hujayralariga kiradi. Barg eti hujayralari bilan oziqlanib, ularni yemiradi va tez ko`payib o`simlikning orginlariga, ko`saklariga ham o`tadi.

**G`o`za gommoziga qarshi kurash choralari.** G`o`za gommozi kasalligiga qarshi jioddiy kurash olib boriladi. Buning uchun chigit ekishdan oldin gommoz sporalarini o`ldiradigan kimyoviy moddalar bilan dorilanadi. Kasallangan o`simliklar daladan yo`qotiladi va yoqib tashlanadi.

**Yangi mavzuni mustahkamlash.**

**5-nazorat topshirig`i: Jadvalda ishlash.**

O`tilgan yangi mavzu turli xil usullar yordamida mustahkamlanadi.

**O`quvchi variant. I-guruh.**

| № | Darslikdagi mavzu matnini diqqat bilan oqib chiqib quyidagi savollarga javob tayyorlang va | O`quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlang. |
|---|---|---|

| | | |
|---|---|---|
| | topshiriqlarni bajarining. | |
| 1. | Qanday bakteriyalar parazit bakteriyalar deyiladi. | O`quvchilar guruhi bilan savollarga javob toping. |
| 2. | Parazit bakteriyalar keltirib chiqaruvchi kasaliklarni aniqlang. | |
| 3. | Yuqumli kasalliklarning suv va havo orqali tarqalishini qaysi olim aytgan. | |
| 4. | Odamlar qaysi kasalliklarga qarshi emlanadi. | |
| 5. | Qadimda odamlar qaysi kasalliklar tufayli ko`plab nobud bo`lgan. | |

**O`quvchi variant. II-guruh.**

| № | Darslikdagi mavzu matnini diqqat bilan oqib chiqib quyidagi savollarga javob tayyorlang va topshiriqlarni bajarining. | O`quvchilar guruhi bilan hamkorlikda ishlang. |
|---|---|---|
| 1. | Qaysi osimliklar bakteriyalarni o`ldiradigan moddalarni ishlab chiqaradi. | O`quvchilar jamoasi bilan o`tkaziladigan savol javobda ishtirok eting. |
| 2. | Parazit bakteriyalar tirik organizimlarga nima orqali yuqadi. | |
| 3. | Parazit bakteriyalarga kurashish choralari nimalardan iborat. | |
| 4. | G`o`za gommozining zarari nimadan iborat. | |
| 5. | G`o`za gommoziga qarshi kurash choralari nimadan iborat. | |

**O`qituvchi varianti.**

1. Tirik o`simlik, hayvon va odam organizimi hujayrasida yashab oziqlanadigan bakteriyalar parazit bakteriyalar deyiladi.

2. Sil, terlama, bo`g`ma, vabo, o`lat, ichburug`, ko`k yo`tal, qoqshol, chehak.

3. Abu Ali Ibin Sino.

4. Ichburug`, ko`k yo`tal, qoqshol, terlama, bo`g`ma, qizamiq, chechak.

5. Terlama, vabo, o`lat.

**O`qituvchi variant i.**

**1**. Gledichiya**,** archa, yong`oq, terak.

2. Havo, suv, ovqat, teridagi jarohatlar orqali.

3. Dezinfeksiya, emlash.

4. Paxtachilikka katta zarar keltiradi.

5. Urug`li chigit ekishdan oldin kimyoviy dorilar bilan dorilanadi.

**6 - nazorat topshirig`i:** "Biodiktant". O`quvchilarga "Biodiktant" matni beriladi. Bunda o`quvchilar matindagi nuqtalar o`rniga tegishli so`zlarni topib qo`yadilar.

**O`quvchi variant:**

1. Ko`zga ko`rinmaydigan mayda tirik mavjudot … deyiladi.
2. Oziqlanishga ko`ra achituvchi bakteriyalar … hisoblanadi.
3. Sharsimon bakteriyalar … deyiladi.
4. Silindirsimon bakteriyalar … deyiladi.
5. Kasallik keltirib chiqarivchi bakteriyalar … deyiladi.
6. Bakteriyalarni o`rganuvchi fan … deyiladi.
7. Gledichiya, archa havoga ajratuvchi modda … deyiladi.
8. Bitta bakteriya ko`payishidan hosil bo`ladigan hujayralar to`plami … deyiladi.
9. G`o`za gommozida parazitlik qiliuvchi bakteriya … deb ataladi.
10. G`o`za gommozi bakteriyasi … bilan oziqlanadi.

**O`qituvchi variant:**

1. Mikroblar. 2. Saprofit.
3. Kokklar. 4. Batsellalar.
5. Parazit bakteriyalar. 6. Mikrobiologiya.
7. Fitonsidlar. 8. Koloniya.
9. G`o`za gommozi. 10. Barg eti hujayralari.

**7 – nazorat topshirig`i:** “Sayohat” metodi. Bunda o`qituvchi o`quvchilarni xayolan dam oldiradi. Bu vaqtda o`quvchilar xayolan ko`zini bir daqiqa yumib, bakteriyalar olamiga, kasallik keltirib chiqaruvchi bakteriyalar olamiga sayohat qiladilar. O`quvchilar sayohat davomida ko`z oldigakeltirgan bakteriyalar hayoti, tuzulishi, kelterib chiqarilgan kasalliklar haqida so`zlab beradilar.

**Darsni yakunlash.**

O`qituvchi yangi mavzuni xulosalaydi. Har bir o`quvchi dars davomida to`plagan rag`bati uchun baholanadi. Guruhdagi o`quvchilar rag`batlari jamlanadi va to`plagan kartochkalariga qarab o`rni belgilanadi. O`quvchilar erishgan natijalarni kundalik daftarlariga qo`yiladi.

Uyga vazifa: 17- sS ni o`qib, 41-rasmni chizib kelish. 5 ta savollarga javob yozish. Doimo tozalil va shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish.

# MAVZU: DENGIZ BO’SHLIQICHLILARI.

<table>
<tr><td>I Darsning maqsad va vazifalari.</td><td colspan="2">Ta’limiy maqsad – o’quvchilar dengiz bo’shliqichlilari va ularning kelib chiqishini bilib oladilar.<br>Tarbiyaviy maqsad – o’quvchilarga ekologik tarbiya berish.<br>Rivojlantiruvchi maqsad – o’quvchilardagi mavjud bilimlarni yangi bilimlar bilan boyitish.<br>Kasbga yo’naltiruvchi maqsad – o’quvchilarni veterenariya, chorvadorlik, parrandachilikkasblariga yo’naltirish.</td></tr>
<tr><td>II Darsning mazmuni</td><td colspan="2">Darsning mazmuni quyidagi tushunchalardan iborat.<br>a Aktiniyalar<br>b. Koloniya hosil qiluvchi poliplar<br>c. Koral riflari<br>d. Meduzalar<br>e. Bo’shliqichlilarning kelib chiqishi</td></tr>
<tr><td>III O’quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi</td><td colspan="2">Shakl: aralash dars, suhbat, tekshirish, munozara.<br>Metod:<br>1. Biologik mashq<br>2. Test<br>3. Charxpalak<br>4. Blits so’rov<br>5. So’z ichida so’z o’yini<br>6. Damino o’yini<br>7. Klaster<br>8. Aqliy hujum<br>9. BBB<br>Dars jixozi: aktiniyalar va meduzalarning ho’l preparati, koral poliplar kolleksiyasi, dengiz bo’shliqichlilari rasmi solingan jadvallar, diafilmlar, riflar to’g’risida videolavhalar.<br>Baholash: reyting tizimida.</td></tr>
<tr><td rowspan="2">IV Kutiladigan natijalar</td><td>O’qituvchi</td><td>O’quvchi</td></tr>
<tr><td>O’quvchilarning bilim samaradorligini oshirish, yangi ko’nikma va malakalar hosil qilish, shu yo’nalishdagi bilimlarini rivojlantirish, o’z-o’zini va o’zaro nazoratni tashkil etishga o’rgatish.</td><td>Tavsiya etilgan o’quv topshiriqlari asosida o’z o’quv faoliyatini tashkil etadi, muammoli vaziyatlardan chiqishning eng muqobil varianttlarina ishlab chiqadi. Yangi bilimlarni o’zlashtirish mavzuga oid o’zini qiziqtirgan yo’nalishlar asosida yangi ma’lumotlar to’plash, o’zlashtirilgan bilim va ko’nikmalardan foydalanib, yangi bilimlarni o’zlashtiradi, o’zbilimini baholaydi va nazorat qiladi.</td></tr>
</table>

**Darsning texnologik bosqichlari.**

| N | Dars bosqichlari | Soat | O'qituvchi | O'quvchi |
|---|---|---|---|---|
| I | **Tashkiliy bosqich** | 3 min | 1. Sinf o'quvchilarini darsga tayyorlash.<br>2. Salomlashish.<br>3. Davomatni tekshirish. | Darsga tayyorlanadi |
| II | **O'tilgan mavzuni so'rash va xulosalash** | 12 min | O'tilgan mavzuni so'rash:<br>1. nazorat topshirig'i Biologik mashq<br>2. nazorat topshirig'i Test<br>3. nazorat topshirig'i Charxpalak<br>4. nazorat topshirig'i Blits so'rov<br>O'tilgan mavzuni xulosalash. Yangi mavzu "Dengiz bo'shliqichlilari" | Berilgan nazorat topshiriqlari (1, 2, 3 va 4) ni bajaradilar. |
| III | **Yangi mavzu bayoni** | 15 min | Yangi mavzuning maqsad va vazifalari bilan o'quvchilarni tanishtiradi. Yangi mavzu rejasini doskaga yozadi va shu reja asosida kichik ma'ruza savol-javoblar, guruh asosida mavzuni tushuntiradi. | Faol ishtirokchi sifatida yangi mavzuni o'zlashtiradi. |
| IV | **Yangi mavzuni mustahkamlash** | 12 min | Yangi mavzuni mustahkamlashda o'qituvchi quyidagi metodlardan foydalanadi.<br>5. nazorat topshirig'i So'z ichida so'z o'yini<br>6. nazorat topshirig'i Klaster<br>7. nazorat topshirig'i Damino o'yini<br>8. nazorat topshirig'i Aqliy hujum<br>9. nazorat topshirig'i BBB | 5, 6, 7, 8- nazorat topshiriqlarini bajaradi. |
| V | **Darsni yakunlash** | 3 min | 1. Yangi mavzuni xulosalaydi.<br>2. Uy vazifasini beradi.<br>3. Ballarni izohli e'lon qiladi. | 1. O'quvchilar uy vazifalarini kundaliklariga yozib oladilar.<br>2. Baholarni kundalikka |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | yozib qo'yadilar. |

**II. O'tilgan mavzuni so'rash va xulosalash.**

**1 - nazorat topshirig'i .“Biologik mashq”**

**(O'quvchi tarqatmasi).**

1) ......yakka o'troq yashovchi poliplar?
2) ......dagi poliplarning ichki bo'shliqlari o'zaro tutashgan bo'ladi?
3) Qattiq skeletli, koloniya bo'lib yashovchi bo'shliqichlilar ....... deb ataladi?
4) Poliplar koloniyasi vaqt o'tishi bilan ....... hosil qiladi?
5) Koral riflaridan ....... sifatida foydalaniladi?
6) ....... dan zeb – ziynat buyumlari tayyorlanadi?
7) ....... ning tanasi birmuncha tiniq, shishasimon dildiroq moddadan iborat?
8) Meduzalar tanasi ....... ga o'xshab ketadi?
9) ........ ildizog'iz meduza uchraydi?
10) Meduzalar ........ ni yeb, baliqchilikka katta ziyon yetkazadi?

**“Biologik mashq”**

**(O'qituvchi tarqatmasi).**

1. Aktiniyalar yakka o'troq yashovchi poliplar.
2. Koloniya dagi poliplarning ichki bo'shliqlari o'zaro tutashgan bo'ladi.
3. Qattiq skeletli, koloniya bo'lib yashovchi bo'shliqichlilar koral poliplar deb ataladi?
4. Poliplar koloniyasi vaqt o'tishi bilan koral orollarihosil qiladi.
5. Koral riflaridan qurilish materiali (ohaktosh)sifatida foydalaniladi.
6. Qizil korallardan zeb – ziynat buyumlari tayyorlanadi.
7. Meduzalarning tanasi birmuncha tiniq, shishasimon dildiroq moddadan iborat.
8. Meduzalar tanasi soyabonga o'xshab ketadi.
9. Qora dengizdaildizog'iz meduza uchraydi.
10. Meduzalar baliq chavoqlarini yeb, baliqchilikka katta ziyon yetkazadi.

**2 - nazorat topshirig'i. “Test”**

**(O'quvchi tarqatmasi)**

1. Gidroid poliplarning tanasining uzunligi qancha?

A. 5 – 6 mm
B. 7 – 8 sm
C. 4 – 6 mm
D. 5 – 7 mm

2. Gidra tanasida ichak vazifasini nima bajaradi?

A. Ektoderma
B. Endoderma
C. Ichki tana bo’shlig’i
D. Muskulli tolalar

3. Gidraning ta’sirlanishga javob berish xususiyati nima deb ataladi?

A. Regeneratsiya
B. Refleks
C. Otiluvchi tola
D. Otiluvchi kapsula

4. Gidraning oraliq hujayralari qanday tuzilgan?

A. Yirik yadroli, mayda
B. Kichik yadroli, kichik
C. Qo’sh yadroli, mayda
D. Qo’sh yadroli, kichik

5. Gidra qanday yo’l bilan ko’payadi?

A. Jinssiz
B. Jinsiy
C. Kurtaklanib
D. A va C javob to’g’ri

6. Bo’shliqichlilar qanday tuzilgan?

A. Nursimon simmetriyali
B. Ikki tomonlama simmetriyali
C. Ohak skeletli
D. Kremniy qum skeletli

7. Gidra ektodermasi qanday hujayralardan iborat?
A. Otuvchi, teri-muskul, nerv, oraliq.
B. Amyobasimon
C. Bezli
D. Hazm qilish hujayrasi
8. Gidra endodermasida qanday hujayralar bo’ladi?
A. Amyobasimon, bezli.
B. Otuvchi
C. Teri muskul
D. Tuxum hujayra
9. Gidra qanday qishlaydi?

A. Qishki uyquga ketadi
B. Qishga oziqa to'plab inlariga kirib ketadi
C. Qishda ham suv tubida hayotini davom ettiradi.
D. Qishda nobud bo'ladi

10. Gidra tanasidagi hujayralar va ular funksiyasi to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni aniqlang?
1-epiteliy-muskul; 2-oraliq, 3-otuvchi, 4-nerv; a-o'lja tutish, himoya b-harakatlanish, d-sezish, e-regeneratsiya.
A. 1 b, 2 a, 3 d, 4 e;
B. 1e, 2 a, 3 d, 4 b;
C. 1 b, 2 e, 3 a, 4 d;
D. 1 a, 2 e, 3 d, 4 b;

**"Test"**

**(O'qituvchi tarqatmasi)**

| Savol | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Javob | | | | | | | | | | |

**3-nazorat opshirig'inn"Charxpalak"**

**(O'quvchi tarqatmasi)**

| Hujayra | Ektoderma | Endoderma | Mezoderma |
|---|---|---|---|
| Otuvchi | | | |
| Nerv | | | |
| Spermatozoid | | | |
| Tuxum hujayra | | | |
| Hazm qilish | | | |
| Teri-muskul | | | |

| | Otuvchi hujayralar | Hazm qiluvchi hujayralar | Jinsiy hujayralar |
|---|---|---|---|
| Otiluvchi tola | | | |
| Muskul tolasi | | | |
| Tuxum hujayra | | | |
| Yadro | | | |
| Otuvchi kapsula | | | |
| Ikki qavatli embrion | | | + |
| Sezuvchi tukcha | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Hazm qiluvchivakuola** | | | |
| **Urug hujayra** | | | |

| | **Oraliq hujayra** | **Nerv hujayra** | **Jinsiy hujayra** | **Otuvchi hujayra** | **Tovoni** |
|---|---|---|---|---|---|
| **Suv tubiga yopishib oladi** | | | | | |
| **Dushmanini falajlaydi** | | | | | |
| **Ta'sirlanish xususiyati** | | | | | |
| **Regeneratsiya xususiyati** | | | | | |
| **Ko'payishi** | | | | | |

**"Charxpalak"**

**(O'qituvchi tarqatmasi)**

| **Hujayra** | **Ektoderma** | **Endoderma** | **Mezoderma** |
|---|---|---|---|
| **Otuvchi** | | | |
| **Nerv** | | | |
| **Spermatozoid** | | | |
| **Tuxum hujayra** | + | | |
| **Hazm qilish** | | + | |
| **Teri-muskul** | + | | |

| | **Otuvchi hujayralar** | **Hazm qiluvchi hujayralar** | **Jinsiy hujayralar** |
|---|---|---|---|
| **Otiluvchi tola** | + | | |
| **Muskul tolasi** | + | | |
| **Tuxum hujayra** | | | + |
| **Yadro** | | + | |
| **Otuvchi kapsula** | + | | |
| **Ikki qavatli embrion** | | | + |
| **Sezuvchi tukcha** | + | | |
| **Hazm qiluvchi vakuola** | | + | |
| **Urug hujayra** | | | + |

| | Oraliq hujayra | Nerv hujayra | Jinsiy hujayra | Otuvchi hujayra | Tovoni |
|---|---|---|---|---|---|
| **Suv tubiga yopishib oladi** | | | | | + |
| **Dushmanini falajlaydi** | | | | + | |
| **Ta'sirlanish xususiyati** | | + | | | |
| **Regeneratsiya xususiyati** | + | | | | |
| **Ko'payishi** | | | + | | |

**4-nazorat topshirig'i. "Blits so'rov"**

**(O'quvchi tarqatmasi)**

1. Gidra tanasining shakli?
2. Gidra tanasining ostki tomoni?
3. Gidra tanasining simmetriyasi?
4. Gidra tanasi devori necha qavat?
5. Gidra tanasi devorining tashqi qavati?
6. Gidra tanasi devorining ichki qavati?
7. Gidra qanday harakatlanadi?
8. Ektodermadagi yulduzsimon hujayralar?
9. Ta'sirlanishga javob berish xususiysti?
10. Tananing jarohatlangan qismini qayta tiklanishi?
11. Gidra tanasini necha bo'lakka bo'lgan?
12. Gidraning jinssiz ko'payish usuli?
13. Gidra qachon jinsiy ko'payadi?
14. Urug'langan tuxum hujayra?
15. Qachon zigotadan yosh gidra hosil bo'ladi?

**"Blits so'rov"**

**(O'qituvchi tarqatmasi)**

1. Gidra tanasining shakli? Silindrsimon
2. Gidra tanasining ostki tomoni? Tovon.
3. Gidra tanasining simmetriyasi? Nursimon
4. Gidra tanasi devori necha qavat? Ikki qavat
5. Gidra tanasi devorining tashqi qavati? Ektoderma
6. Gidra tanasi devorining ichki qavati? Endoderma
7. Gidra qanday harakatlanadi? Odimlab
8. Ektodermadagi yulduzsimon hujayralar? Nerv
9. Ta'sirlanishga javob berish xususiysti? Refleks
10. Tananing jarohatlangan qismini qayta tiklanishi? Regeneratsiya

11.Gidra tanasini necha bo'lakka bo'lgan? 200 bo'lak
12. Gidraning jinssiz ko'payish usuli? Kurtaklanish
13.Gidra qachon jinsiy ko'payadi? Kuzda
14.Urug'langan tuxum hujayra? Zigota
15.Qachon zigotadan yosh gidra hosil bo'ladi? Bahorda

**II Yangi mavzu bayoni**

**Reja:**

1. Aktiniyalar.
2. Korall poliplar
3. Ssifomeduzalar
4. Bo'shliqichlilarning kelib chiqish.

**Aktiniyalar.**Aktiniyalar (Actinia sp.) yakka holda yashovchi korall poliplarga kiradi. Ularning tanasi silindrsimon bo`lib, diametri bir necha millimetrdan 0,5 m gacha yetadi. Tanasining yuqori uchida og`iz teshigi joylashgan. Og`iz teshigi atrofida ko`pmiqdordagi paypaslagichlari bir necha qator bo`lib joylashgan. Og`iz teshigi tor naysimon halqum orqali ichak bo`shlig`i bilan tutashgan. Ichak bo`shlig`i ko`ndalang yoki tik to`siqlar yordamida bir necha qismga bo`linadi. Aktiniyalar - o`troq yashovchi, kam harakat yirtqich hayvonlar. Ular tovoni bilan juda sekin harakatlanishi mumkin. Aktiniyalar paypaslagichlari yordamida har xil dengiz hayvonlarini, shu jumladan, qisqichbaqasimonlar va mayda baliqlarni tutib yeydi. Paypaslagichlarda juda ko`p otuvchi hujayralar bo`ladi. Shuning uchun boshqa hayvonlar aktiniyalarga tegmaydi. Zohid qisqichbaqalar dushmanlardan o`zini himoya qilishi uchun chig`anog`i ustiga bitta yoki bir nechta aktiniyani o`tqazib olib yuradi. Zohid qisqichbaqa aktiniya yordamida o`zini himoya qilish bilan birga o`zi tutgan oziqni aktiniya bilan baham ko`radi. Ikkita jonivorning bunday o`zaro hamkorlikda hayot kechirishi simbioz deyiladi.

**Korall poliplar.** Tropik dengizlarda koloniya bo`lib yashovchi poliplar keng tarqalgan. Har bir koloniya gidraga o`xshash tuzilgan juda ko`p individdan iborat. Koloniyadagi hamma poliplarning tana bo`shlig`i o`zaro tutashgan bo`ladi. Shuning uchun bitta polip tutgan oziq koloniyaning barcha a'zolari o`rtasida teng taqsimlanadi. Koloniya bo`lib yashovchi korall poliplar tanasida qattiq ohak skeleti hosil bo`ladi. Polip koloniyasi kurtaklanish tufayli hosil bo`ladi. Koloniyadagi kurtaklar ona organizmdan ajralib ketmaydi, balki o`zi ham kurtaklanib ko`payaveradi.

Tropik dengizlarning sohil yaqinidagi uncha chuqur bo`lmagan joylarida korall poliplar koloniyasi korall riflari deb ataluvchi orollarni hosil qiladi. Korall riflaridan qimmatli qurilish materiali (ohaktosh) sifatida foydalaniladi. Qizil korall riflaridan zeb-ziynat buyumlari tayyorlanadi. Suvosti korall riflari xilma-xil baliqlar va boshqa dengiz hayvonlari uchun makon bo`lib hisoblanadi. Shuning uchun korall riflari tarqalgan joylarda qo`riqxonalar tashkil etilgan.

Korall poliplar sinfiga 6000 dan ortiqturdagi, asosan koloniya bo`lib yashovchi bo`shliqichlilar kiradi. Ayrim vakillari yakka yashaydi (7-rasm).Ko`pchilik vakillari iliq suvli tropik dengizlarda tarqalgan. Ularga aktiniyalar va korall poliplar kiradi.

**Ssifomeduzalar (Scyphozoa)** (ssifos-grekcha "kosacha") ning tanasi dildiroq tiniq moddadan iborat bo`lib, shakli to`nkarib qo`yilgan kosacha yoki soyabonga o`xshaydi. Meduzalar barcha dengiz va okeanlarda keng tarqalgan, ayrim vakillari chuchuk suvlarda ham uchraydi. Meduzalar suvda erkin qalqib yuruvchi bo`shliqichlilardir (6-rasm). Tipik vakili - aureliya, ya'ni dengiz likopchasi (Aurelia aurita) keng tarqalgan.

**Tuzilishi.** Dengiz likopchasining og`iz teshigi soyabon ostki tomonining o`rtasida joylashgan. Og`zi atrofi to`rtta yirik paypaslagichlar, soyabon chetlarida esa juda ko`p ingichka va kalta paypaslagichlar osilibturadi. Tana devori barcha bo`shliqichlilarniki singari ikki qavat bo`lib joylashgan hujayralardan iborat, lekin ektoderma bilan endodermani ajratib turuvchi hujayrasiz qavat – mezogleya juda kuchli rivojlangan.

Meduzalar soyabon devoridagi muskullarning qisqarishi tufayli harakatlanadi. Soyabon kengayganda \uning osti suvga to`ladi, qisqarganida esa suvuning ostidan kuch bilan siqib chiqarilishi natijasida reaktiv harakat paydo bo`lib, meduza soyabonining qavariq tomoni bilan oldinga suzadi.

6-rasm.Aureliya meduzasi: 1-ropaliy, 2-radial nay, 3-halqa nay, 4-og’iz bo’lagi, 5-shoxlanadigan radial naylar, 6-paypaslagichlar, 7-oshqozon, 8-og’iz, 9-jinsiy bez.

**Oziqlanishi.** Meduzalar gidraga nisbatan ancha murakkab tuzilgan hayvonlardir. Ularning ichki bo`shlig`i birmuncha ixtisoslashgan qisqa halqum, to`rt kamerali oshqozon va tarmoqlangan uzun radial naychalar sistemasidan iborat. Meduzalar yirtqich hayvonlar. Ular turli qisqichbaqasimonlar, chuvalchanglar, baliq chovoqlari va boshqalar bilan oziqlanadi. O`z o`ljasini otiluvchi ipchalar yordamida falajlaydi va og`zi atrofidagi yirik paypaslagichlari yordamida og`ziga olib keladi. Oshqozonda hazm suyuqligi ishlab chiqaruvchi bezlar joylashgan. Bezlarning suyuqligi ta'sirida oziq parchalanib hazm bo`ladi va naychalar sistemasi orqali tanasining hamma qismiga tarqaladi.

**Sezishi.** Meduzalarning nerv hujayralari soyabon chetida to`planib, nerv tugunlarini hosil qiladi. Ularda yorug`lik sezish, hid bilish kabi xususiyatlar mavjud. Ular ayniqsa, bosimning o`zgarishiga sezgir bo`ladi. Meduzalarning dovul ko`tarilishini oldindan payqash xususiyatidan foydalanib, dovul to`g`risida oldinroq xabar qiluvchi "Meduza qulog`i" asbobi ixtiro etilgan.

**Ko`payishi.** Ssifomeduzalarning hayot siklida jinsiy va jinssiz ko`payishi gallanib turadi. Ular meduza davrida jinsiy ko`payadi. Jinsiy hujayralari soyabonning ostki tomonida hosil bo`ladi. Yetilgan urug` hujayra og`zi orqali tashqariga chiqariladi va urg`ochi meduza og`zidan ichkariga kirgach, tuxum hujayra bilan qo`shilib

urug`lanadi. Urug`langan tuxum hujayradan hosil bo`lgan planula lichinkasi kipriklarini tashlaydi va suv ostiga cho`kib, juda mayda polipcha hosil qiladi. Polipcha ko`ndalangiga bir necha marta bo`linib, yassi kurtakchalar hosil qiladi. Kurtakchalardan esa meduzalar o`sib yetishadi.Shunday qilib, meduza ssifomeduzalarning jinsiy ko`payadigan avlodi, poliplar esa jinssiz avlodi hisoblanadi. Lekin polip davri juda qisqa davom etadi.

**Ssifomeduzalarning xilma-xilligi.** Meduzalar juda xilma-xil bo`lib, tanasining diametri bir necha santimetrdan ikki m gachayetadi, ayrim meduzalar otuvchi hujayralarining zahari yirik hayvonlar va hatto, odam uchun ham xavfli hisoblanadi. Tropik dengizlarda keng tarqalgan fizaliyaning suv yuzasida turuvchi chiroyli yelkani bo`ladi. Yuqoridan pastga qarab osilib turgan paypaslagichlari 30 m ga yetadi. Uning kuydiruvchi hujayralaridan zaharlangan odamning ko`ngli ayniydi va harorati ko`tariladi. Dengiz arisinominiolganxiropsalmus meduzasi Avstraliya qirg`oqlarida uchraydi. Uning zahari odamni falaj qilish xususiyatiga ega.Uzoq Sharqdagi Kuril orollari yaqinida va Amur daryosining quyilish joyida uchraydigan butli meduza zahari odam uchun juda xavfli hisoblanadi. Ssifomeduzalar sinfiga 200 dan ortiq tur kiradi.

**Bo'shliqichlilarning kelib chiqish.** Tanasidagi hujayralarning kuchsiz ixtisoslashganligi va kuchli regeneratsiya qilish xususiyati bo'shliqichlilarning qadimgi hayvon ekanligini ko'rsatadi. Olimlarning fikrich, qadimgi koloniya bo'lib yashovchi bir hujayrali xivchinlilardan dastlabki gidrasimonla, ulardan esa korall poliplar va meduzalar kelib chiqqan. Bo'shliqichlilar tanasida oziqni qamrab olib hazm qiladigan hujayralarning bo'lishi buning dalili hisoblanadi.

## IV Yangi mavzuni mustahkamlash

**5-nazorat topshirig'i. "So'z ichida so'z o'yini"**

**(O'quvchi tarqatmasi)**

**"Bo'shliqichlilar"**

| | |
|---|---|
| **1** | |
| **2** | |
| **3** | |
| **4** | |
| **5** | |
| **6** | |
| **7** | |
| **8** | |
| **9** | |
| **10** | |
| **11** | |
| **12** | |
| **13** | |

| | |
|---|---|
| **14** | |
| **15** | |

**So'z ichida so'z o'yini"**

**(O'qituvchi tarqatmasi)**

**"Bo'shliqichlilar"**

1. Bo'sh 2.Bo'shliq 3Liq 4.Qil 5.Ich 6.Qilich 7.O'sha 8.Ari 9.Arra 10.O'sh 11. O'q 12. Il 13. Alla 14. Chiq 15. Qo'shiq

**6 –nazorat topshirig'i. "Damino o'yini"**
**(O'quvchi tarqatmasi)**

| | |
|---|---|
| | **Yakka o'troq yashovchi poliplar?** |
| | ***Qattiq skeletli, koloniya bo'lib yashovchi bo'shliqichlilar?*** |
| | ***Korall poliplar qanday ko'payadi?*** |
| | ***Tanasi birmuncha tiniq, shishasimon dildiroq moddadan iborat hayvon?*** |
| | ***Cho'miluvchilar uchun xavfli bo'shliqichlilar?*** |
| | ***Shimoliy dengizlarda uchraydigan meduza?*** |
| | ***Odam uchun zararsiz meduza?*** |
| | ***Riflar tarqalgan joylar nimalarga aylantirilgan?*** |
| | ***Meduzalar o'ljasini qanday falajlaydi?*** |
| | ***Eng qadimgi hayvonlardan biri?*** |
| | |

## Damino o'yini"

## (O'qituvchi tarqatmasi)

| | |
|---|---|
| | Yakka o'troq yashovchi poliplar? |
| *Aktiniyalar.* | ***Qattiq skeletli, koloniya bo'lib yashovchi bo'shliqichlilar?*** |
| ***Korall poliplar.*** | ***Korall poliplar qanday ko'payadi?*** |
| ***Jinsiy va kurtaklanish.*** | ***Tanasi birmuncha tiniq, shishasimon dildiroq moddadan iborat? hayvon?*** |
| ***Meduzalar.*** | ***Cho'miluvchilar uchun xavfli bo'shliqichlilar?*** |
| *Ildizog'iz meduza.* | ***Shimoliy dengizlarda uchraydigan meduza?*** |
| ***Qutb meduzasi.*** | ***Odam uchun zararsiz meduza?*** |
| ***Aureliya.*** | ***Riflar tarqalgan joylar nimalarga aylantirilgan?*** |
| *Qo'riqxonalarga.* | ***Meduzalar o'ljasini qanday falajlaydi?*** |
| ***Otiluvchi tolachalari yordamida.*** | ***Eng qadimgi hayvonlardan biri?*** |
| ***Bo'shliqichlilar.*** | |

## (O'quvchi tarqatmasi)




**"Klaster"**
**(O'qituvchi tarqatmasi)**




**8 - nazorat topshirig'i. "Aqliy hujum"**

**(O'quvchi tarqatmasi.)**

**Berilgan hayvonlar orasida ortiqcha hayvonlarni aniqlang.**




**“Aqliy hujum”**

**(O’qituvchi tarqatmasi)**

**Gidra Amyoba Tufelka**

**9 - nazorat turi**

**“BBB ” metodi**

**(O’quvchi tarqatmasi)**

| **Mavzu: Dengiz bo’shliqichlilari** | **Bilardim** | **Bildim** | **Bilmoqchiman** |
|---|---|---|---|
| Dengizlarda aktiniyalar, korall poliplar va meduzalar keng tarqalgan. | | | |
| Korall poliplarning tanasi devorida ohak skelet hosil bo’ladi. | | | |
| Korall riflaridan qurilish materiali sifatida foydalaniladi. | | | |
| Qutb meduzasi va ildizog’iz meduza cho’miluvchilar uchun xavfli. | | | |
| Aureliya meduzasi dengiz likopchasi deb ham ataladi. | | | |
| Aureliya meduzasi odam uchun zararsiz. | | | |
| Meduzalar baliq chavoqlarini yeb, baliqchilikka birmuncha ziyon yetkazadi. | | | |
| Meduzalarning tanasi soyabonga o’xshab ketadi. | | | |
| Meduzalarning soyaboni qisqarganda uning | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| ostidagi suv kuch bilan otilib chiqib, reaktiv harakat paydo bo'ladi. | | | |
| Meduzalarning tana devori hujayralai hamma bo'shliqichlilar singari ikki qavat joylashgan, lekin oraliq moddasi kuchli rivijlangan. | | | |
| Qadimgi koloniya bo'lib yashovchi bir hujayrali xivchinlilardan dastlabki gidrasimonlar kelib chiqqan. | | | |
| Dastlabki gidrasimonlardan koral poliplar va meduzalar kelib chiqqan. | | | |

**BBB " metodi**
**(O'qituvchi tarqatmasi)**

| **Mavzu: Dengiz bo'shliqichlilari** | **Bilardim** | **Bildim** | **Bilmoqchiman** |
|---|---|---|---|
| Dengizlarda aktiniyalar, korall poliplar va meduzalar keng tarqalgan. | + | | |
| Korall poliplarning tanasi devorida ohak skelet hosil bo'ladi. | | + | |
Yil davomida Shimoliy – Sharqiy yo’nalishdagi shamol hukumronlik qiladi. Shamol tezligi 20 -25 mG’sek yozi juda issiq havoning nisbiy namligi 23-26% bo’lib yog’ingarchilik bo’lmaydi. Eng issiq oy iyul o’rtacha harorat Q27 Q28$^0$S. Eng yuqori harorat Q 44$^0$ S.

Relefi qo’riqxona Amudaryoning suv bosadigan o’ng qirg’og’i qismida joylashgan. Hudud dengiz sathidan 86 dan 89 metr balandlikda bir xil tekislikda joylashgan.

6462 gektar maydondan 3950 gektarni o’rmon qoplagan yoki o’rmon 35 yil davomida 578 gektarga qisqargan. Buni tahlil qiladigan bo’lsak o’rtacha bir yilda 19,3 gektar o’rmon qisqargan. Ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki, qo’riqxona o’rmon ekosistemasiga antropogen ta’sirining kuchayishidir. Ma’lumotlarga qaraganda o’tgan asrning 70-yillarida 167 tur yuqori tipdagi o’simliklar qayd qilingan bo’lsa 1985-1996

yillardagi tekshirishlarda 61 tur yuqori tipdagi o'simliklar qolganligi aniqlangan yoki o'simliklar 106 turga qisqargan. Hayvonlardan baliqlar, suvda va quruqda, yashovchilar sudralib yuruvchilar, qushlar va sutemizuvchilarni uchratish mumkin.

Baliqlardan qo'riqxona hamda Amudaryo, Ko'kdaryo irmoqlarida 26 tur baliq yashaydi. Amudaryo oqimining o'zgarishi va irrigatsiya qurilishlari tufayli keyingi yillarda ba'zi o'zgarishlar sodir bo'lib, qo'riqxona ixtiofaunasidan bakra, **oq**sazan, oqsla (sudak) baliqlari batamom uchramaydi. Amudaryoning qumloq erlarida O'zbekiston "Qizil kitob"iga kiritilgan Amudaryo katta va kichik kurakburun baliqlar uchraydi. Qo'riqxona hududidagi Amudaryoda oq qayroq, orol mo'ylovdori, laqqa, orol oqchasi, qilich baliq (chexon), nayzaqanotli baliq, oq amur, oddiy dungpeshona va boshqa baliqlar uchrashi qayd etilgan.

Suvda va quruqda yashaydiganlarning ikki turi ko'kbaqa va baqa uchraydi.

Hozirgi vaqtda 13 tur sudralib yuruvchilar to'qay atroflarida yashaydi. Bulardan eng ko'pi O'rta Osiyo toshbaqasi, cho'l toshbaqasi va kaltakesaklar hisoblanadi.

Qushlardan 91 tur qayd etilgan bo'lib, quruqxonada uya quyuvchi 39 tur, o'troq yashovchilar -16, qishlovchilar -18, uchib o'tuvchilar 18 tur. Sutemizuvchilardan hasharotxo'rlar, kemiruvchilar, yirtqichlar, to'ng'izlar, Buxoro bug'ularini uchratish mumkin.

**Zomin tog'- archa davlat qo'riqxonasi**

Bu qo'riqxona 1926 yil tashkil topgan uning tabiati keskin, ammo go'zal va o'ziga xosdir. Hozirda maydoni 26840 gektar bo'lib undan 22137,3 gektari o'rmon bilan qoplangan. Shuni ta'kidlash kerakki O'zbekiston hududida archa o'rmoni o'z tabiiy ko'rinishini shu erda saqlab qolgan. Asosiy faktorlar xalq xo'jaligiga katta zarar etkazuvchi tuproq erroziyasi va sellarga qarshi kurash bo'lib suvni himoyalash, suv harakatini tartibga solish, tuproq himoyasi rolini o'ynaydi. Zomin tog'- archa davlat qo'riqxonasi. Shimoliy turkiston tog' tizimlari yonbag'irlari hududining Zomin va Baxmal tumanlarida joylashgan. Hudud o'rta va yuqori tog' tizmalari ko'rinishida ifodalanib dengiz sathidan 1760- 3500 metr balandlikda.

**Tabiiy geografik iqlim sharoiti.**

Hudud keskin kontinental, ko'p yillik ma'lumotlarga qaraganda qo'riqxonada o'rtacha yog'in miqdori 405 mm. Yozda yog'ingarchilik asosan yomg'ir, tog' cho'qqilarida qor ko'rinishida bo'ladi. Qor yog'ish tog'ning yuqori cho'qqilarida may va iyun oylarida, yanvar – fevral oylarida qor qoplami yarim metr va undan yuqori bo'ladi, shamol o'rtacha kuchga ega, ammo janubiy – sharqiy va shimoliy shamollar katta kuch bilan esadi.

Havoning o'rtacha harorati 4,8 $^0$S, yuqori harorat Q23 Q33 past ko'rsatgich -24-28, tuprog'i qora – kulrang va jigarrang.

Qo'riqxona florasi asosan aboragen o'simliklardir. Qo'riqxona o'simliklarining ko'pchiligi efemir o'simliklar bo'lib, ular bahorda tezgina hayot jarayonini tamomlaydi. Bu o'simlikning shu iqlim sharoitiga moslashganligini ko'rsatadi. Efemir o'simliklarning ildizlari to'g'ri va yon tomonga o'sadi, yon tomonga o'sgan ildizlar tuproq ustki qatlamida namlikni saqlab turadi, to'g'ri o'sgan ildiz grunt suvlargacha etib boradi.

Zomin tog' - archa qo'riqxonasi o'simlik qoplamini uch pog'onaga bo'lish mumkin: cho'l, o'rmonli, baland tog'li.

Cho'l pog'onasi dengiz sathidan 1500-1800 metr balandlikda joylashgan bo'lib, kuchli siyraklashgan, ba'zi joylarda daraxt butalarning butunlay yo'qligi bilan xarakterlanadi.

O'rmon qo'riqxonaning katta qismini tashkil etib, asosan archa daraxtlar bilan qoplangan. Archalar, qora archa, saur archa, balg archa yoki o'rik archa kabi uch turda. Archaning tanasi egiluvchan bo'lib, turli ta'sirlarga bardosh beradi.

Archaning urug'i tuproq yuzasida o'sa boshlaydi, o'sishi juda sekin birinchi o'n yilda har yiliga 7-10 mm o'sadi. Archa bilan birga shaftoli, terak va Marvaridgul o'sadi. Baland tog' pog'onasi keskin ekologik iqlimga moslashgan. Kserofitlar – quruq, namgarchilik kam joylarda o'sishga moslashgan o'simliklar bilan qoplangan.

Qo'riqxonada 70 oilaga, 280 turkumga oid, 700 tur o'simlik bo'lib, shundan 13 turi O'zbekiston "Qizil kitob"iga kiritilgan, 48 turi turkiston tog' tizmalari g'arbiy qismiga oid endem turlardir.

**Hayvonot dunyosi.**

Qo'riqxonada tog' - archa o'rmoniga xos bo'lgan barcha tur hayvonlar mavjud. Chunki qo'riqxonada tabiiy oziqa baza, turli maydonlar va uya quyish uchun sharoitlar bor.

Qo'riqxonada bir tur baliq, ikki tur suvda va quruqda yashavchilar, 12 tur sudralib yuruvchilar, 102 ta qushlar, 30 tur sutemizuvchilar hayot kechiradi, shulardan xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyatining qizil kitobiga kiritilgan Ilvirs, Severtsev quyi, qo'ng'ir ayiq, tasqara, qora laylak, boltayutar, silovsin, kichik burgut, itolg'i, mallabosh lochin, sutemizuvchi hayvonlardan qo'riqxonada bo'ri, to'ng'iz va tovushqonlarni uchratish mumkin.

**Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi**.

Toshkent shahridan 35 km uzoqlikdagi Shimoliy – sharqiy qismida, mamlakatimizning o'z go'zalligi bilan takrorlanmas Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi joylashgan. Qo'riqxonaning tashkil topganligiga 2007 yilda 60 yil to'ldi. 1947 yil Chotqol tog' tizmalarining oxirgi qismida Chotqol o'rmon biosfera qo'riqxonasiga asos solindi. YuNESKO (ta'lim, fan va madaniyat) qarori bilan 1993 yil qo'riqxonaga biosfera maqomi berilib, qo'riqxona biosferaning tarmog'i deb tan olindi va qo'riqxona insonning atrof – muhitga ta'sirini o'rganish natijasi ekanligi qayd etildi. Qo'riqxona hududi Chotqol tog' tizmalarining oxirlarida Tyanshanga to'tashgan bo'lib, ikki qismdan iborat: Boshqizilsoy (Parkent tumani) Maydontol (Bo'stonliq tumani).

Barcha hudud Sirdaryo, Chirchiq va Ohangoron daryolarining tog'li qismida joylashgan.

**Tabiiy geografik iqlim sharoiti**.

Hudud keskin kontinental, qishda sovuq qorli, havo harorati – $40^0$S gacha tushadi. Qish va bahorda yog'ingarchilik 720 dan 1157 mmgacha. Baland tog'lar zonasiga xos bo'lgan bahor va yozning bashlanishida kuchli jala va yomg'irlar bo'ladi. Havoning nisbiy namligi 48% dan 68% gacha. Iqlim qo'riqxonada qishi qattiq $-40^0$S

gacha savuq, yozi +30$^0$+35$^0$S atrofida. O’simliklar tog’lanshafti o’zining turli tumanligi va takrorlanmas go’zalligi bilan ajralib turadi. Qo’riqxonada 1168 tur o’simliklar o’smoqda shulardan 6 turi endem turlardir. Qo’riqxona hududida texnik, efirmoyli, dorivor mevali o’simliklar va oziqabop o’simliklar mavjud. Ular qimmatli genetik fond hisoblanadi. Qo’riqxonada yong’oq, olma, olcha, gilos, namatak, lolalar kabi o’simliklar uchraydi. Unda 46 ta tur O’zbekiston “ Qizil kitob” iga kiritilgan o’simliklar mavjud. Qo’riqxonada Kavkaz karkasi nomli o’simlik o’sadi. Uni mahalliy aholi “Tosh” yoki “Temir” daraxti deb ataydi, yog’ochi mustahkam, og’ir suvda cho’kmaydi, u qoyalar va ochiq qoyalarda tuproqsiz o’sadi. Bu daraxt quruq tog’ qoyalarini ko’kalamzorlashtirish uchun ayni muddodir.

Qo’riqxona hayvonot olami boy va turli – tuman. Bu erda suvning serobligi, turli xildagi daraxt – butazorlar va o’t o’simliklari, tog’lik, qoyalar, tabiiy oziqalarning ko’pligi, biologik xilma – xillikni ta’minlaydi. Tog’li hayvonot dunyosi qator xususiyatlar bilan ajralib turadi:

Kunduzgi va kechki haroratning o’zgarib turishi ayniqsa tog’li joylarda,

maydonlarning turli - tumanligi hayvonlar uchun qulay sharoit hisoblanadi. Bu joylarda Alp va cho’l zonalariga xos hayvonlar yashaydi.

Ko’pgina hayvonlarda uzoq davom etadigan mavsumiy ko’chib yurish hollari yo’qligi, qish vaqtida ular pastlikka yoki janubiy qor qoplami kam, qor qisqa muddatda erib ketadigan tomonlarga o’tadilar.

Qo’riqxonada qushlardan Burgut va Boltayutar odam qadami etmaydigan baland tog’larga uya qo’yadilar. Sudralab yuruvchilardan cho’l toshbaqasi, suv ilon, kaltakesaklar, qora ilon va boshqalarni ko’rish mumkin.

Sut emizuvchilardan bo’ri, to’ng’iz, tulki, bo’rsuq, silovsin, tovishqon, tog’ echkisi va boshqalar yashaydi.

Tog’ning balandligida, qorli erlarda ko’k sug’ir (Menzbir sug’iri) koloniya bo’lib yashaydi.

Tyanshan Ayig’i qo’riqxonada uchrashi oddiy hol bo’lib, hozir ular soni 70-80 tadan oshmaydi. Maydontol qoyalarida borish qiyin bo’lgan joylarda qo’riqxona faxri bo’lgan Sibr tog’ echkilari yoki oddiy qilib aytganda echkilar yashaydi. Bu erda Ilvirsni ham uchratish mumkin, Ilvirs oziqasi asosan echkilar. Ilvirs juda ham kamayib ketgan.

2000 yilda E. Chernogaev va boshqalar ikkita Ilvirsni ko’rganlar xalos. Qo’riqxona hududida sibir eliki 110 tadan oshmaydi.

Qo’riqxona hududida to’liq bo’lmagan ma’lumotlarga qaraganda qo’yidagi hayvonlar mavjud.

Hasharotlar – 1000 dan ortiq turlari

Baliqlar – 4 turi

Suvda va quruqda yashovchilarning -2 turi

Sudralib yuruvchilar – 17 turi

Qushlarning - 176 (uya quyadiganlar -103)

Sutemizuvchilarning 33 turi

Xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyatining va O’zbekiston respublikasi “Qizil kitob” lariga kiritilgan qo’yidagi hayvonlar mavjud:

**Qushlar:**

1 Qora laylak
2 Ilonxo'r burgut
3 Burgut
4 Boltayutar
5 Mallabosh lochin (shaxin)
6 Itolg'i
7 Kichik – burgut
8 Tasqara (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)
9 Oqbosh qumoy

**Sutemizuvchilar**:

1 Ilvirs (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)
2 Qo'ng'ir ayiq
3 Ko'k sug'ir (Surok menzbira)
4 Olaqo'zan
5 Silovsin

**Sudralib yuruvchilar:**

1 qorako'zchali kaltakesakcha (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)
2 Cho'l qora iloni (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)
3 Ko'ndalang chiziqli bo'ritish ilon

**Baliqlar:**

1 Turkiston laqqasi
2 Chotqol shayton balig'i

**Qizilqum davlat qo'riqxonasi**

Qizilqum davlat qo'riqxonasi 1971 yilda tashkil qilingan. Hozirgi vaqtda umumiy maydoni 10311 gektar. Shundan 5338 gektori o'rmon bilan qoplangan. Qo'riqxona ikki viloyatning ikki tumanida joylashgan. Buxoro viloyati Rometan tumanida 1467 gektori, Xorazm viloyati Xozarasp tumanida 8844 gektori. Qo'riqxona hududi Amudaryoning qirg'oq qismida joylashgan bo'lib, shimoliy – g'arbiy sharq tomonga qarab 30 km cho'zilgan, sharqdan g'arbga qarab 3 km. To'qay va qumloq sahro qismlarni tashkil qiladi.

**Tabiiy geografik iqlim xususiyatlari.**

Hudud iqlimi quruq va keskin kontinental. Amudaryo katta ta'sir etib iqlimni yumshatadi. Sahro zonasi iqlimi quruq havo, harorat rejimi keskin, yog'ingarchilik kam, yoz harorati yuqori, qishda harorat pastroq, suv bug'lanishi katta, bulutli kunlar kamroq bo'ladi. Issiq yoz kuchli shamollar bilan davom etadi. May - iyun oylarida yuqori harorat Q41Q44$^0$S. Bu davrda tuproq yuzidan namlik kuchli darajada ko'tarilib tuproqning ikkilamchi sho'rlanishiga sabab bo'ladi.

Qishda havo harorati -20-21$^0$ S bo'ladi. Qor qoplami qisqa vaqt turadi. Birinchi qor dekabr oylarining o'rtalarida yog'ib fevral oyining birinchi yarmigacha davom etadi.

Yog'in miqdori bir yilda 126,6 mm dan oshmaydi. Yog'ingarchilik asosan qish va bahorga to'g'ri keladi. Sahro ekosistemasi uchun shamol ma'lum darajada

ahamiyatga ega. Shamolning tezligi 2-7 mG's. Kuchli shamol qumlarning harakati va qayta tarqalishini ta'minlaydi. Yozda u qisqa muddatda o'simliklarni qovjiratib qo'yadi, qishda esa pasaygan relefga namlikni to'playdi. Qo'riqxonaning iqlim sharoiti yog'ingarchilikning tanqisligiga bog'liq.

**O'simlik dunyosi**. Qo'riqxona asosan to'qay landshafti bo'lib, u erda 150 tur o'simlik o'sadi. Qumli joylarida qora va oq saksovul, cherkez, qandim va quyonsuyak kabi buta va chala butalarni uchratish mumkin.

**Hayvonot dunyosi.** Sudralib yuruvchilardan cho'l toshbaqasi, qizil quloq kaltakesak, yumaloq bosh kaltakesak va Severtsev gekkoni, suv ilon, zaharli charx ilon va boshqalar uchraydi. Qushlardan burgut, qora qirg'iy, jig'ilton, qirg'ovul kabi hayvonlar yashaydi. Sut emizuvchilardan yumronqoziq, malla yumronqoziq, qumsichqon, qo'shoyoq, chiyabo'ri, to'qay mushugi, qum mushugi va bo'ri uchraydi. Qo'riqxonada ayniqsa Buxoro bug'usi alohida muhofaza qilinadi va ko'paytiriladi. Ekologik tarmoq fauna va flora majmui muhofazaga va uning resurslaridan barqaror foydalanishgan xizmat qiladi.

Qushlarning burgut, qora qirg'iy, jig'ilton, qirg'ovul kabi turlari mavjud.

Qo'riqxonada 82 turga mansub hayvonlar qayd etilgan. Ekologik tarmoq fauna va flora majmui muhofazaga va uning resurslaridan barqaror foydalanishgan xizmat qiladi.

Qizilqum qo'riqxonasida xalqaro tabiat va tabiiy boyliklarni muhofaza etish jamiyati va O'zbekiston "Qizil kitob"iga kiritilgan turlar uchraydi. O'simliklardan sug'd lolasi, karolkov eremurusi va mottey qandim.

Hayvonlardan quyidagilar:

Sudralib yuruvchilardan echkemar.

Baliqlardan: Amudaryo kichik kurakburuni (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)

Amudaryo katta kurakburuni (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati), (7-rasm)



Orol oq sazani, orol mo'ylovdori, orol tikani (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)

Nayzaqanotli baliq, turkiston mo'ylovdori, Oqqayroq baliq

Qushlardan qo'riqxonada qizil birqozon jingalak saqqoqush (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)

Kichik qoravoy (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)

Kichik qarqara yoki kichik oq qo'ton

Marmar o'rdak (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)

Qoshiq burun
Qoravoy
Qironqora
Uzun dumli suv burguti (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)
Oq dumli suv burguti (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)
Ilonxo'r burgut
Itolg'i
Yo'rg'a tuvaloq (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)
Suv qiyg'ir
Cho'l burguti
Oq laylak
Qora laylak
Oq qush – oqqul
Sutemizuvchilardan:
Buxoro bug'usi (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)
Jayron (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)

**Surxon davlat qo'riqxonasi**

Surxan davlat qo'riqxonasi 1986 yilda tashkil topgan. Qo'riqxona Surxan viloyati Sherobod tumanining shimoliy – g'arbiy qismida joylashgan. U ikki mustaqil payg'ambarorol va Kuhitangdan iborat. Payg'ambarorol deb nomlanishiga quyidagi rivoyat sabab. Payg'ambar o'lgandan keyin uni Amudaryoning o'rtasiga dafn etishni vasiyat qilgan ekan. Vasiyatni bajarish uchun odamlar payg'ambarni Amudaryo o'rtasiga dafn qilgan kundan boshlab bu erda orol paydo bo'lgan emish. Bu joy asosan dindorlar uchun ziyoratgoh bo'lib qolgan.

Orolpayg'ambar Qo'riqxonasi tog' vodiysi ekosistemasini va halqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati va O'zbekiston "Qizil kitob" iga kiritilgan Buxoro bug'usini saqlash maqsadida tashkil qilingan edi. Bu erda Jiyda, yulg'un, saksovul, juzg'in va efimer o'simliklari uchraydi. Hayvonlardan kaltakesak, toshbaqa, echkemar, (8-rasm) Buxoro bug'usi, yovvoyi cho'chqa, qum quyoni, chiya bo'ri, qirg'ovul kabilarni uchratish mumkin. 1986 yil Orolpayg'ambar Kuhitang davlat buyurtmaxonasi Orolpayg'ambar qo'riqxonasi bilan qo'shilib umumiy maydoni 24554 gektor Surxon davlat qo'riqxonasi tashkil etildi. Qo'riqxona janubiy – g'arbiy tamondan Hisor tog' tizmalarida Pomer – Oloy tog' tizmalarida joylashgan. Kuhitang davlat buyurtmaxonasi 1971 yil tashkil etilib, maydoni 43000 gektar edi. O'sha yillarda burama shoxli echki Morxo'r, Buxoro yovvoyi quyi, qushlardan burgut, Boltayutar va boshqalar hamda dunyo miqyosida ahamiyatga ega bo'lgan toshga uyib aks ettirilgan morxo'r va quy ovi ajoyib yodgorlikni hikoya qilish maqsad edi. Qo'riqxona xududida tarixiy – madaniy yodgorliklar mavjud. Boysun tog'inig janubiy qismida barchaga ma'lum teshik tosh g'ori kashf qilinib unda qadimgi odam neandertal o'g'il bolaning to'liq bo'lmagan skeleti topildi.. Bu yodgorliklar qimmatli hisoblanadi. To'qay vodiysi ekosistemasida xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati va O'zbekiston "Qizil kitob"lariga kiritilgan Buxoro bug'usi (9-rasm) yashamoqda. O'sha yillarda Burama shoxli echki Morxo'r, Buxoro yovvoyi

quyi, qushlardan Burgut, Boltayutar va boshqalar dunyo miqyosida ahamiyatga ega, qo'riqxona hududida tarixiy – madaniy yodgorliklar mavjud.





**Zomin tabiiy milliy bog'i**

Bu bog' 1976 – 78 yillarda tashkil topgan.

Zomin tabiiy milliy bog'i Zomin tumanida joylashgan bo'lib, Turkiston tog' tizmasinig Jizzax viloyati va uning janubiy – sharqiy qismida joylashgan. Sharqiy hududi Tojikiston respublikasi bilan chegaradosh. Umumiy maydoni 24110 gektar, shundan o'rmon bilan qoplangan qismi 16828 gektar.

Bog'da 70 oilaga 200 turkumga mansub 700 tur o'simliklar o'smoqda. Shundan 13 turi O'zbekiston "Qizil kitob" iga kiritilgan o'simliklardir. 48 tur o'simlik Turkiston tog' tizmalarinig g'arbiy qismi uchun endem turlardir. Bog'dagi 216 tur qalpoqchali zamburug'lar o'smoqda shundan 16 tur O'zbekiston respublikasi uchun, 90 tur Markaziy Osiyo uchun, 53 tur Osiyo uchun, 12 tur va 2 ta har xil tur MDX va 2 tur o'simliklar fan uchun yangi turlar hisoblanadi. Qo'riqxonadagi mavjud 12 tur endem zamburug'lardan 6 turini Markaziy Osiyo sharoitida sanoat uchun madaniylashtirilsa bo'ladigan turlar.

Hududda dorivor o'simliklardan 20 tur, manzarali o'simliklardan 15 turdan ortiq, efir moyli, bo'yoq beruvchi va oziqabop O'zbekiston genafondini tashkil qiladigan o'nlab qimmatbaho o'simliklar mavjud.

Bog' hayvonot dunyosi boy va turli - tumandir. Bu erda tog'-archa o'rmoniga xos bo'lgan barcha tur hayvonlarni uchratish mumkin. Bog'da biologik xilma-xillik uchun tabiiy oziqa, uya qo'yish maydonchalari kabi sharoitlar mavjud. Qo'riqxonada baliqlarning 6 turi suvda va quruqda yashovchilarning 2 turi, sudralib yuruvchilarning 14 turi, qushlarning 101 turi, sut emizuvchilarning 30 turi mavjud.

Milliy bog'da Xalqaro tabiat va tabiat boyliklarni muhofaza etish jamiyati va O'zbekiston respublikasi "Qizil kitob"iga kiritilgan quyidagi o'simliklar va hayvonlar qo'riqlanmoqda.

**Flora**

1. Yashil shirach

2. Sutrang shirach
3. Sochsimon lola
4. Turkiston lolasi
5. Mahalliy lola
6. Poyasimon piyoz
7. Karol'kov shafrangi
8. Talass akoniti
9. Zarafshon akoniti
10. Severtsov kokildori
11. Muskat ferulasi
12. Jizzax kuzinasi

**Qushlar**:

1. Itolg'i (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)
2. Tasqara (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)
3. Burgut
4. Boltayutar
5. Oq boshli qumoy
6. Lochin
7. Qora laylak
8. Kichik burgut.

**Sutemizuvchilar**

1. Tyanshan qo'ng'irayig'i
2. Silovsin
3. Severtsev quyi (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)
4. Ilvirs (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)



**Jayron ekologik markazi**

Noyob hayvonlarni ko'paytirish maqsadida 1977 yil «Jayron» ekologik markazi tashkil qilindi. Markaz Buxoro shahridan 40 km janubda joylashgan bo'lib 5145 ga maydonga ega, u janubiy-g'arbiy qizilqum hududiga kiradi. Markazning janubiy qismida sun'iy ko'l bo'lib, undan tuyoqli hayvonlar, suvda suzuvchi qushlar suv ichadi. Ekomarkazning atrofi 2 metrli balandlikda sim to'rlar bilan o'ralgan. 1977 yilda Ekomarkazga 42 ta jayron (10 - rasm) keltirilib, ular tez ko'payib 1987 yilda 1200 taga etdi. Jayronlar ochiq tabiatga quyib yuborildi. Hozirgi vaqtda 1600 ta jayron bo'lib, markazda ularning yashashi uchun qulay sharoit yaratilgan. Ekomarkazda jayrondan tashqari noyob hayvonlarning yo'rg'a tuvaloq, qulon, Prijivalskiy oti kabi turlari ko'paytirilmoqda. Ekomarkaz hayvonlar fiziologiyasini o'rganish bo'yicha xalqaro aloqalarni o'rnatgan, Masalan, hozirgi kunda Frantsiya ilmiy tadqiqot markazi bilan aloqa qilmoqda. Ekomarkazda marmar churrak va yo'rg'a tuvaloq uya qo'yadi.

Uchib o'tadigan qushlarning oqqush, qizil g'oz va boshqa turlarini ham uchratish mumkin.

## JAYRON YOKI QORAQULOQ

O'tgan asrning etmishinchi yillarida hozirgi MDH mamlakatlarida jayronlarni ko'paytirish uchun 13 ta qo'riqxona tashkil etishga qaror qilindi. (Bunga o'sha davrda boshlangan orol muammosi ham sabab bo'lgani shubhasiz). Ular ayni ana shu hayvonlar mavjud bo'lgan Turkmaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Tojikiston va O'zbekistonda faoliyat boshladi. Dastlab ekomarkaz "Jayronlarni ko'paytirish bo'yicha Buxoro ixtisoslashtirilgan qo'riqxonasi" deb nomlangan va toboro kamyob bo'lib borayotgan bu jonivorlarni ko'paytirish, ularni biologik o'rganish yashashi va ko'payishi uchun qulay sharoitlar yaratish asosiy vazifa qilib olingan edi. Bu sohada ijobiy natijalarga erishilgandan so'ng qulon, sayg'oq, Buxoro bug'usi, Prjevalskiy oti, chiroyli tuvaloq, yo'lbarssimon yirtqich hayvonlarni saqlash va ko'paytirish choralari ko'rildi. Bu borada ishlar kutilgan natijani bergach, Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 dekabrdagi farmoyishi bilan qo'riqxonaga "Jayron ekomarkazi" nomi berildi.

Qo'riqxona hududi murakkab tabiiy releflardan iborat bo'lib, asosan Qizilqum va Qarnobcho'l qumliklari hamda yarimqumliklardan tashkil topgan. Uning birinchi qismida sho'rlik darajasi turlicha bo'lgan to'rtta kichik ko'ldan iborat suv havzalari mavjud. Ko'llar asosan tabiiy suv manbalari va Amu-Buxoro kanalidan oqib o'tadigan suv bilan to'ldiriladi. Ularning minerallik darajasi chegara doirasida. Markaz hududining o'simliklar dunyosi boy va xilma-xil. Bu erda o'simliklarni turiga qarab o'n bir turkumga bo'lish mumkin.

Birinchi hududda asosan tuyoqli hayvonlar yashashi, ko'payishi va rivojlanishi uchun etarli sharoit mavjud. Ma'lumotlarga ko'ra, 2006 yilning o'zida tuyoqli hayvonlardan-jayronlar mingta, qulonlar ellik uchta, Prjevalskiy otlari qirq bittaga etgan. Ikkinchi hududda esa, 30-40 ta jayron yashaydi. Bu hudud tuyoqli noyob hayvonlar etishtirishda zahira vazifasini bajaradi.

Umuman olganda, qo'riqxonada turli hayvonlarning 32 turi, 250 dan ortiq parranda, sudraluvchilarning 18, baliqlarning 8 va umurtqasizlarning 200 dan ortiq turi mavjud. Ularni o'rganishga doir ilmiy tadqiqot ishlari jadal sur'atlarda olib borilmoqda va bu haqda ilmiy nashrlar hamda vaqtli matbuotda qator maqolalar chop etildi, ilmiy anjumanlarda ma'ruzalar qilindi. Ilmiy tadqiqot ishlarining umumiy soni ikki yuztadan ortiq. O'zbekiston, Rossiya, Frantsiya, Germaniya va boshqa mamlakatlardan ellikdan ortiq talaba bu erda amaliyot mashg'ulotlarini o'tkazib, saksondan ortiq kurs va diplom ishlari yozgan. Bu erda to'plangan materiallar va olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida to'rtta nomzodlik, bitta doktorlik (Frantsiya) dissertatsiyalari yoqlangan. Rossiya, Ukraina, Yaponiya va boshqa davlatlarning biolog olimlari ekomarkazga kelib, tadqiqot ishlarini olib borishmoqda. 1994 yili O'zbekiston tabiatni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi va Frantsiya fanlar akademiyasi o'rtasida cho'l hayvonlarini biologik o'rganishga doir xalqaro shartnoma tuzilib, ekomarkazda uzoq muddatli tadqiqot ishlari olib borilmoqda va buning natijasida markaz zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlandi. Tuyoqli hayvonlarning biologik va garmonik rivojlanishini o'rganadigan maxsus ilmiy laboratoriyalar tashkil etildi. Tuyoqlilarni

ko'paytirishning genetik imkoniyatlari, yurak - qon tomirlari borasida ilmiy tadqiqotlar ancha samarali bo'ldi. Frantsiya Fanlar akademiyasi bilan olib borilgan tadqiqotlarga Moskva davlat universiteti talabalari ham jalb etildi. Izchil va hamkorlikdagi ilmiy faoliyat natijalari bir qator xorijiy nashrlarda chop etildi. Birgina Frantsiya olimlari o'ndan ortiq ilmiy maqolalarni e'lon qilishdi. Shuningdek, Kaliforniya universiteti olimlari ham alohida muammolar doirasida ilmiy-takdqiqot ishlarini olib borishdi. Keyingi yillarda qo'riqxonada bir qator xalqaro ilmiy ekspeditsiyalar qo'yidagi yo'nalishlarda faoliyat olib bormoqda:

- O'zbekiston, Rossiya, Polsha, AQSh Fanlari akademiyasi olimlari hamkorligida geoekspeditsiya, cho'llanish jarayonlariga qarshi kurash mavzusida;

- O'zbekiston va Frantsiya Fanlari akademiyasi olimlaridan iborat ekspeditsiya hududning suv resurslari hamda uning sho'rlanish jarayonlarining tasnifi va boshqa mavzularda yirik tadqiqot ishlarini amalga oshirishdi.

Ayni paytda ekomarkazda mahalliy olimlar ham qizg'in faoliyat olib borishmoqda. Jumladan, O'zbekiston Fanlari akademiyasi Samarqand viloyati bo'limi qoshidagi mintaqaviy muammolarni kompleks o'rganish instituti fan va texnologiyalar markazi granti asosida veterinariya instituti bilan hamkorlikda tuyoqli hayvonlarning endo va ekozararkunandalarini o'rganishmoqda.

Ekomarkaz Moskva hayvonot bog'i bilan tuzilgan shartnoma asosida kam sonli hayvonlarini ko'paytirish va ularni biologik urchitish bo'yicha loyihalar doirasida ham ish olib borayapti.

Alohida ta'kidlash joizki, markazda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari ko'p jihatlari bilan dunyoda yagona va betakrordir. Jumladan, jayron, qulon va Prjevalskiy otlarini ko'paytirishning optimal omillari, jayronlarni qo'lda ko'paytirish, markazning asosiy hududida hayvonlar hisobini olib borish va yashashini o'rganishning total usullari, tuyoqlilarni ko'paytirishning biotexnik taqvimi, hayvonlarning bioritmi va jismoniy ehtiyojlarini hisobga olib, qo'riqxona imkoniyatlaridan foydalanishning me'yorlari va jadvallari, shuningdek, ekomarkazning qo'shimcha moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish maqsadidagi dasturlar majmui va boshqa loyihalar ishlab chiqildi.

Shu bilan birga, tuyoqli hayvonlarni biologik o'rganish sohasida, xususan, jayronlarda yurak-qon tomirlari va endokrin tizimi, urg'ochi jayronlarning reproduktiv holatlari, ularda endogen ritmlarining o'ziga xosligi, ularni ko'paytirishda tabiiy omillarning ta'siri, tuyoqli hayvonlarning yovvoyi holatda oziqlanishida ozuqalarning kimyoviy tarkibi zamonaviy fan talablari asosida o'rganildi. Qo'riqxona hududida jayronlar oziqlanadigan o'simliklarni ko'paytirish va ularning maydonini belgilashning ilmiy echimlari topilib, ularni amalda qo'llash choralari ko'rildi. Ekomarkaz hududidagi o'simliklarni nazarda tutgan holda uning geobotanik kartasi yaratildi.

Ekomarkaz Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyatning jiddiy o'zgarayotgani tufayli cho'l hududlarida yuzaga kelayotgan biotsenozni tiklash orqali cho'llanish jarayoniga qarshi asosli ilmiy echimlarni tavsiya etmoqda. Shuningdek, tuyoqli hayvonlarning mamlakatimiz hududida yovvoyi holatda ko'payishi va shu bilan, tabiatda biorang-baranglikni ta'minlash choralarini ko'rmoqda. Ekomarkaz hududida xalqaro va respublika "Qizil kitob"iga kirgan hayvonlarni ko'paytirishning keng ko'lamli dasturlari amalga oshirilayapti. Bu o'z navbatida, mamlakatimizda ekologik

muammolar turkumiga kiruvchi hayvonot olamini asrash, tobora kamayib borayotgan hayvonlar turlarini avaylash va ko'paytirish imkonini beradi.

**Togarak mashg`ulotini mustahkamlash yuzasidan "O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan qo'riqxonalar, milliy bog'lar, buyurtmaxonalar va tabiat yodgorliklariga "bag`ishlangan tadbir ssenariysi**

**1-shart**
**Savol javoblar**
**1-guruh**

**1**.Buyurtmaxonalarni nima va ularni sanab bering?
2. Chotqol davlat biosferaviy tog' - o'rmon qo'riqxonasi nechanchi yil tashkil etilgan?
3.Tabiiy va milliy bog'larni aytib bering?
4.Boday – to'qay davlat qo'riqxonasi nechanchi yil tashkil etilgan?
5. Boday – to'qay davlat qo'riqxonasida qanday hayvonlar yashaydi?
6. Zomin tog'- archa davlat qo'riqxonasi nechanchi yil tashkil etilgan? Hozirda maydoni necha gektarni tashkil etadi?
7. Zomin tog'- archa davlat qo'riqxonasida qizil kitobga kiritilgan o`simliklar haqida ma`lumot bering?
8. Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi nechanchi yil tashkil etilgan?
9.Qachon qo'riqxonaga biosfera maqomi berildi?
10. Qo'riqxona hududida qanday hayvonlar yashay?

**2-guruh**

1. **Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi**da "Qizil kitob" lariga kiritilgan qaysi hayvonlarni bilasiz?
2. Qizilqum davlat qo'riqxonasi nechanchi yil tashkil etilgan?
3.O'simlik dunyosi haqida ma`lumot bering?
4.Hayvonot dunyosi haqida ma`lumot bering?
5. Surxan davlat qo'riqxonasi nechanchi yil tashkil etilgan
6.O'zbekiston "Qizil kitob"larigan o`simlik vahayvonlar xaqida ma`lumot bering?
7. Zomin tabiiy milliy bog'i nechanchi yil tashkil etilgan?
8.Zomin tabiiy milliy bog'ida O'zbekiston "Qizil kitob" iga kiritilgan o'simliklar haqida ma`lumot bering?
9. Jayron ekologik markazi nechanchi yil tashkil etilgan?
10.Qachon qo'riqxonaga "Jayron ekomarkazi" nomi berildi?

**2-shart SMS**
**Zomin tabiiy milliy bog'i florasi**
**Flora**

1.Yashil shirach

2.Sutrang shirach
3.Sochsimon lola
4.Turkiston lolasi
5.Mahalliy lola
6.Poyasimon piyoz
7.Karol'kov shafrangi
8.Talass akoniti
9.Zarafshon akoniti
10.Severtsov kokildori
11.Muskat ferulasi
12.Jizzax kuzinasi

**Zomin tabiiy milliy bog'i faunasi**

**Qushlar**:

1.Itolg'i (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)
2.Tasqara (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)
3.Burgut
4.Boltayutar
5.Oq boshli qumoy
6.Lochin
7.Qora laylak
8.Kichik burgut.

**Sutemizuvchilar**

9.Tyanshan qo'ng'irayig'i
10.Silovsin
11.Severtsev quyi (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)
12.Ilvirs (xalqaro tabiat va tabiat boyliklarini muhofaza etish jamiyati)

**3-shart**

**Pantamimo**

1.Rayhon
2.Lolaqizg'aldoq
3.Sariq gul
4.Lola
5.Chinnigul
6. Navro'zgul
7. Atirgul
8.Qashqargul
9. Dastargul
10.Kartoshkagul
11. Moychechak
12. Nilufargul
13. Nastarin
14. Gvazdika
15.Guli baxmal
16.Boychechak
16. Xrezantema
17.Kaktus
18. Bo'tako'z
19. Fikus
20. Fialka
21.Xitoy rozasi
22. Palma
23.Yorongul
24.Binafsha
25. Xlorofitum
26.Aloi
27.Oleangr
28.Trandeskansiya
29.Sallagul
30.Jumagul

**2-guruh ucnun**

1.ilon
2.toshbaqa
3.boltayutar
4.jayron
5. Prjevalskiy oti
6. Silovsin
7.Tasqara
8.Burgut
9.Lochin
10.Qora laylak
11. Oq qush
12.kurakburun
13.qirg'iy
14.qirg'ovul
15.Severtsev gekkoni
16.zaharli charx ilon
17.kaltakesak
18.Cho'l qora iloni
19.Turkiston laqqasi
20.ko`k kabutar

**4 shart**
**RAQAMLAR SO`ZLAGANDA**
**1-guruh**



2-**guruh**




**Xulosa.** O‘quvchilarni tabiatga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lish ruhida tarbiyalash tabiatni muhofaza qilish ta’limining eng asosiy vazifalaridan biridir. Har bir o‘quvchi tabiatga bo‘lgan munosabatda bundan kelib chiqadigan oqibatlarni yaxshi tushunib etmog‘i va uning jamiyatga qanday ta’sir etishini bilishi lozim. Uning tabiatga bo‘lgan ta’siri va munosabati o‘z vatanini sevishga, jonajon o‘lka tabiatini ardoqlashga qaratilgan burchida namoyon bo‘lmog‘i kerak.

YOshlarni tabiatga,tabiatda bo‘ladigan hodisa va jarayonlarga bolalikdan o‘rgata borish, tabiat chiroyidan estetik bahra olishga erishish, xullas tabiatni juda sevadigan qilib tarbiyalash zarur.

Tabiatni muhofaza etishning nazariy asoslarini bilish bilan biz tabiatga bo‘lgan munosabatni to‘g‘ri belgilab oldik, deya olmaymiz. Tabiatni yaxshilashda va uni saqlashda faol qatnashgan kishigina tabiatga va bu bilan birga jamiyatga katta foyda etkazadi. Amaliy faoliyati bilan tabiatni e’zozlashda, tabiat durdonalarini saqlashda, ko‘paytirishda yaxshilashda qatnashgan o‘quvchigina tabiatni muhofaza etish g‘oyalarini chuqur o‘zlashtirgan hisoblanadi. Buning uchun sinfda, maktabda va maktabdan tashqarida olib boriladigan ishlarda tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan nazariy va amaliy ishlar ma’lum reja asosida olib borilishi lozim.

**Mashgulotni yakunlash:Ishtirokchilar rag`batlantiriladi va to’garak mashg`uloti yakunlanadi**

**Uyga vazifa : O’zbekistonning hayvonot dunyosi va uni muhofaza qilish, qo’riqxonalar, buyurtmaxonalar va milliy bog’larhaqida ma’lumot topish.**

## MAVZU:MAKTAB O'QUV TAJRIBA MAYDONCHASINI TASHKIL ETISH. DARAXT, BUTA, CHALA BUTA O'TO'SIMLIKLARNING VEGETATSION DAVRINI O'RGANISH.

**Mashgulotning maqsadi:** o'quvchilarda tashkilotchilik, jamoatchilik ko'nikmalarini, mehnat madaniyatini, estetik tuyg'ularni, o'simlikni ko'paytirish bilan tabiatni qayta ishlab chiqarish ko'nikmalarini tarbiyalash, biologiyadan olgan bilimlarini o'simlik va hayvonlar misolida mustahkamlash.

**Mashg'ulot shakli:**Nazariy

**Mashg'ulotning borishi**

**Tashkiliy qism: Salomlashish ,davomat aniqlash.**

**O'tilgan mavzu takrori:**
**-Qo'riqxona nima.**
**-Buyurtmaxonaga nimalar kiradi.**
**-Milliy bog'lar nimasi bilan farq qiladi.**
**-Tabiat yodgorliklariga nimalar kiradi.**

**Yangi mavzu bayoni:ma'ruza shaklida**

Maktab uchastakasida, maktabda o'rganiladigan o'simliklar: dala, poliz, rezavor mevalar, manzarali va yovvoyi o'simliklar bo'lishi kerak. Shunga muvofiq, uchastka aniq chegaralangan: dala, poliz, rezavor meva, manzarali, biologik va zoologik bo'limlarga ega bo'lishi zarur. Uchastkada metrologik stantsiya, auditoriya barpo etish zarur. Har bir bo'limda o'simlik kollektsiyasi va ular ustida tajriba o'tkazish uchun joy ajratiladi.

Dala bo'limi ikki: kollektsiya va tajriba qismlarga bo'linadi.

Kollektsiya qismi quyidagi dalalarga ajratiladi: birinchi dalaga – suli, o'tlar; ikkinchi dalaga – donli ekinlar: javdar bug'doy, arpa, tariq, makkajo'xori; uchinchi dalaga – dukkakli ekinlar: no'xot, loviya, soya va yem xashak o'tlari, beda; to'rtinchi dalaga – tolali ekinlar: zig'ir, kanop, moyli ekinlar: kungaboqar, kanakunjut, yeryong'oq; beshinchi dalaga – chopiq talab ekinlar: kartoshka, qand va xashaki lavlagilar; oltinchi dalaga – efirli va dorivor o'simliklar yalpiz; yettinchi dalaga – texnika ekinlari: g'o'za, kanop ekinlari.

Tajriba qismlarida birinchi dalada qora shudgorda begona o'tlarni paydo bo'lishi va ularga qarshi kurash, yashil o'g'itlar bilan o'g'itlangan va o'g'itlanmagan yerda kelgusi yilda g'alla ekish. Ikkinchi dalada ekishning yaxshi usulini aniqlash. Uchinchi dalada beda va unga aralashtirilgan pichan hosili. To'rtinchi dalada kartoshkalarning yer ustki tugunaklarini hosil qilish, chopiqni ta`siri, kartoshkani ko'paytirish usullari, kartoshkadan yuqori hosil olish.

Sabzovot ekinlarini bo'limida – alohida uchastkaga ko'p yillik ekinlar kollektsiyasi: yernok shavel , ravoch o'tqaziladi. Bo'limning qolgan maydonini sabzovot almashlab ekish uchun 4 ta dalaga ajratiladi.

1-Dalada: go’ng bilan yangi o’g’itlangan yerga bargli ekinlar, har xil navli karam: mosh va qizil karam, gul karam, pomidor, piyoz.

2-Dalada: mevali ekinlar.

3-Dalada: mineral o’g’itlar bilan o’g’itlangan yerga ildiz mevali: sabzi, lavlagi, sholg’om, rediska.

4-Dalada: dukkakli ekinlar: loviya, no’xat va ertangi kartoshka ekiladi.

Sabzovot ekinlari ustida o’tkaziladigan tajribalar quyidagilar bo’lishi mumkin:erga qo’shimcha ishlov berishning ta siri,qalamchadan ko’paytirish, chatishtirish, novdalarning chilpishning ta siri, yaxshi o’simliklarni urug’lik uchun ajratish, asosiy ekinlar: karam, pomidor, lavlagi, piyoz, bodring va boshqalardan yuqori xosil yetishtirish.

Bu tajribalarning barchasidan botanika V-VI sinflardagi mavzularni o’tishda, umumiy biologiyadan IX- sinfda “Ko’payish va individual rivojlanish”, “Genetika va selektsiya asoslari” mavzularini o’tishda foydalaniladi.

Rezavor- meva ekinlari bo’limining katta qismi mevali bog’ uchun, kichikroq qismi rezavor-meva ekinlari va pitomnik uchun ajratiladi.

Kollektsiya uchun boqqa olcha, nok, do’lana o’simliklarini ekish kerak.

Rezavor- meva bo’limini tashkil qilishda katta yoshli meva daraxtlari ular ustida kuzatish olib borish uchun, tez o’zgaruvchan yosh, shakl beriladigan daraxtlarga unchalik qiziqarli bo’lmaydi. Shuning uchun maktab uchastkasida pitomnik bo’lishi zarur. Rezavor- meva ekinlari gullarni sun`iy changlatish, mevali daraxtlarni kurtak va iskana payvand qilish, rezavor - mevalarni parxishlab va qalamchalardan ko’paytirish bo’yicha tajribalar o’tkaziladi. Vegetativ ko’paytirish ko’nikmalariga alohida e tibor berish kerak.

Manzarali o’simliklar bo’limida quyidagi o’simliklar bir yilliklardan: -baxmalgul, tamaki: ikki yilliklardan: -kartoshkagul, gulsafsar. Butalardan:-siren , chirmashib o’sadigan o’simliklar-yovvoyi tok, pechakgul. Manzarali o’simliklar bilan V-VI va IX sinf o’quvchilari yovvoyi o’simliklarni madaniylashtirish bo’yicha, chatishtirish, payvandlash parxishlab ko’paytirish, kun uzunligini ta siri, o’g’itlab sug’orishning ta`siri, shonalarni chilpish bilan o’simlikni gullash vaqtini o’zgartirish bo’yicha tajribalar o’tkazadilar.

o’simliklar biologiyasi bo’limi, botanika, zoologiya,umumiy biologiya kurslari bo’yicha ahamiyatga ega bo’lgan o’simliklar biologiyasi bo’limi maktab o’kuv tajriba uchastkasida bo’lish kerak. Bu yerda eng muhim biologiya qonunlarini aniqlashtiruvchi tajribalar qo’yiladi. Yovvoyi o’simliklarni o’tqazish o’quvchilarni e tiborini o’rab olgan tabiatni bilab olishga qaratiladi.

Zoologiya bo’limida tajribalar va amaliy ishlar uchun quyonlar, vol yerlarda yoki tovuqxonalarda tovuqlar bo’lishi shart. Xayvonlarning o’simlik muhiti bilan bo’lgan tabiiy bog’lanish ishini tushuntirish uchun uchastkaning o’simliklari bo’lgan turli bo’limlardan foydalaniladi. Misol: sabzovot bo’limida o’quvchilar ba`zi bir zararkunandalar rivojlanishini kuzatish uchun ajratib qo’yadilar. Rezavor-meva bo’limida meva daraxtlarning zararkunandalarini ustida kuzatishlar olib boriladi.

Metereologik stantsiya uchun yer, daraxtlar va imoratlardan uzoqroqda joy ajratiladi: uni o’simliklar biologiyasi bo’limining oldida yoki dala o’simliklari bo’limining o’rtasida joylashtirilgani ma qul. Odam va uning salomatlik kursini

o'qitish protsessida uchastkadan foydalanish mumkin. Chunonchi VIII sinfda o'quvchilar ustidan ularning mehnat faoliyatida alohida kuzatishlar olib borish mumkin. Maktab uchastkasida to'g'ri va noto'g'ri ritmda ishlaganda charchash darajasini hisobga olish mumkin.

Uchastkada yopiq joy bo'lishi zarur, uning ostida o'quvchilar yomg'ir yog'ayotgan vaqtda yashirinadilar kuzda esa o'simliklarni quritish uchun foydalaniladi. Maktab uchastkasida asboblarning saqlanadigan asboblar ombori bo'lishi shart, u yerda belkurak, metin hashkash, arra, bolg'a, bog' qaychisi bo'lishi shart. Uchastkadagi ishlar o'quvchilarga tashkilotchilik, jamoatchilik ko'nikmalarini, mehnat madaniyatini estetik tuyg'ularini, o'simliklarni ko'paytirish bilan tabiatni qayta ishlab chiqarishni ko'nikmalarni tarbiyalash kerak. Maktab uchastkasida maktabda o'rganiladigan o'simliklar: dala poliz, rezavor-meva, manzarali va yovvoyi o'simliklar bo'lishi kerak.

## MASHGULOTNI MUSTAHKAMLASH:
## XAYOTIY SHAKLLAR TAHLILI

O'simlik va hayvonlarning tashqi muhitning asosiy omillariga nisbatan morfologik moslanishlari va hayot kechirish tarzi organizmlarning hayotiy shakli deyiladi. O'simliklarning hayot shakli deyilganda ma'lum tashqi muhit sharoitida o'simliklar guruhlarining o'sish va rivojlanish natijasida kelib chiqadigan umumiy ko'rinishi( qiyofasi, gabitusi) tushuniladi. Gulli o'simliklarning hayot shakllari daniyalik botanik olim **K.Raunkier** tasnifi bo'yicha **7** turga bo'lib o'rganiladi : **Fanerofitlar**, **Xamefitlar, Gemikriptofitlar, Kriptofitlar, Terofitlar**, **Gelofitlar, Gidrofitlar**. Rus olimi **I.Serebryakov** o'simliklarning hayotiy shakllarini **3** ga bo'lib tasniflaydi **1.Daraxtsimon o'simliklar 2. Chala daraxtsimon o'simliklar, butalar, chala butalar. 3. O'tchil o'simliklar.**

Hayvonot dunyosida hayot shakllarini tasniflashda tashqi muhitning umumiy xususiyatlaridan tashqari ayni shu muhitdagi harakatlanish imkoniyatlari hamda ozuqaning xarakteri muhim ahamiyatga ega. Hayvonlarning quyidagi hayotiy shakllari ajratiladi **geteroterm, poykiloterm va gomoyoterm hayvonlar**.

Turli muhitlarda harakatlanish xususiyatlariga ko'ra quyidagi hayot shakllari ajratiladi :

**I. Suzuvchi hayvonlar: (suvda yashovchilar, suvda va quruqlikda yashovchilar)**
**II. Kovlovchilar**
**III. Quruqlikda yashovchi hayvonlar**
**IV. Daraxtda yashovchilar**
**V. Havo muhitidagi shakllar (havoda ozuqa topuvchilar, havoda kuzatib turib ozuqa topuvchilar)**

**A. Ko'p yillik o't o'simliklarining hayot shakllari tahlili**

**Material va jihozlar.** Sebarga, zubturum, gulsafsar, bug'doyiq, ajriqbosh, kartoshka, piyoz va yovvoyi qulupnaylar gerbariysi.

**Ishni bajarish tartibi.** Diqqat bilan yuqorida ko'rsatilgan o'simliklarning tashqi ko'rinishini kuzatib chiqing. Bunda er ostki organlariga alohida e'tiibor bering. O'simliklarning tashqi tuzilishi asosida ularni **T. I. Serebryakov** turkumlashi bo'yicha hayot shakllariga ajrating. Quyidagi 4-jadvalni to'ldiring :

| O'simlik nomlari | Hayot shakli | Bargining shakli | Guli to'pguli va mevasi | Er ostki organlari | Ahamiyati |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |

**B. Sut emizuvchi hayvonlar hayot shakllarining tahlili**

**Material va jihozlar.** yumronqoziq, dala sichqoni, kitsimonlar, tuyoqlilar, yirtqichlar va boshqa hayvonlarlarning tulumi yoki rangli rasmlari.

**Ishni bajarish tartibi**. Hayvonlarning hayot shakllarini o'rganishda guruhli suhbat o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Sut emizuvchilarning tulumi yoki rasmlari tasvirlangan jadvallardan foydalanib, o'xshash hayot tarziga ega bo'lgan sut emizuvchilar, ya'ni er ostida yashovchilar **(krot, ko'rsichqon**), er yuzida yuguruvchilar **(tuyoqlilar, yirtqichlar**), sakrovchilar (**yumronqoziqlar, kengurular),** daraxtlarga tirmashuvchilar **(yalqovlar, maymunlar),** uchuvchilar **(qo'shqanotlilar),** suvda yashovchilar **(kitsimonlar, tyulenlar)** o'rganib chiqing va natijalar asosida 5-jadvalni to'ldiring.

**5-jadval**

| Hayvon nomlari | Yashash muhitiga ko'ra hayotiy shakli | Tana haroratiga ko'ra tasnifi | Oziqlanishiga ko'ra tasnifi | Ahamiyati |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | | | | |
| | | | | |

**XULOSA**

O'simlik maktab uchastkasida ishlab, biologiyadan olgan bilimlarini yangi olingan o'simlik va hayvonlar misolida mustahkamlaydilar. Ular qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishning va hayvonlar parvarishining eng muxim agronomik usullari to'g'risida tasavvurlar hamda ular bilan ishlashning muayyan sistemadagi ko'nikmalarni hosil qiladilar. Uchastkadagi ishlar o'quvchilarda tashkilotchilik, jamoatchilik ko'nikmalarini, mehnat madaniyatini, estetik tuyg'ularni, o'simlikni ko'paytirish bilan tabiatni qayta ishlab chiqarish ko'nikmalarini tarbiyalashi kerak. o'quv tajriba uchastkasida kuzda, bahorda botanika, zoologiya va umumiy biologiya bo'yicha darslar va amaliy mashg'ulotlar, yozda, kuzda va bahorda tajribalar qo'yish va kuzatishlar o'tkazish, botanika, zoologiya va umumiy biologiya darslarga tarqatiladigan va demonstratsiya materiallari tayyorlashlash bo'yicha darsdan tashqari

ishlar o’tkaziladi. Uchastkada yosh tabiatshunoslar ish olib boradi va maktab, sinfdan tashqari tadbirlar: hosil kuni, bog’ kuni, qushlar kuni, ko’rgazmalar, ota-onalar, boshqa maktab o’quvchilari uchun ekskursiyalar va shu kabilar tashkil qilinadi.

**Mashg’ulotni yakunlash:Ishtirokchilarning bajargan ishlari tahlil qilinadi va togarak mashg`uloti yakunlanadi**

**Uyga vazifa: Xona o’simliklarda vegetatsion davrni kuzatish.**

## MAVZU:O‘ZBEKISTONDA BIOLOGIYA FANINING TARAQQIYOTI, ULUG’ ALLOMA IBN SINO VA ABU NASR FOROBIYNING ILMIY MEROSINI O’RGANISH.

**Mashgulotning maqsadi:**

1.Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan biologiya sohasidagi ilmiy tadqiqot institut, markazlar, olimlarining fan rivojiga qo‘shgan hissalari, o‘simlik-va xayvonot olami qoplamini o‘rganish va ularni muhofaza qilish, ko‘paytirish chora-tadbirlari xaqida ilmiy ma`lumotlar berish.

**Mashg’ulot shakli:**Nazariy

**Mashg’ulotning borishi**

**Tashkiliy qism: Salomlashish ,davomat aniqlash.**

**O’tilgan mavzu takrori:**
**-Vegetatsion davr nima?**
**--hayotiy shakl nima?**
**-Manzarali bo’limga qaysi o’simliklar kiradi?**
**-K’op yillik o’simliklar hayotiy shakllarini ayting.**

**Mashgulotning ma`ruzasi:**

Markaziy Osiyo dunyo tsivilizatsiyasining asosiy markazlaridan biri hisoblanadi. Buyuk ajdodlarimiz Ibn Sino, Farobiy, Beruniy, Boburlar dunyoviy fanlarni shu jumladano’simliklar va hayvonot dunyosini o’rganish bilan ham fanlar tarixida o’zlarining chuqur izlarini qoldirganlar. Bir qator biologik fanlarning shakllanishiga asos solganlar.

**ABU ALI IBN SINO (980-1037)** (Film namoyishi )



Evropada Avetsina, Sharqda Ali Abu Ibn Sino nomi bilan dunyoga mashhur olim o’zining tarjimai holida shunday deb yozadi: “Mening otam asli Balxlik bo’lib, (Hozirgi Buxoro viloyati Peshku tumanida joylashgan) Afshona qishlog’iga kelib Sitora (Yulduz) ismli qizga uylanadi. Undan men va ukam dunyoga kelgan”.

Ibn Sino 980 yilda shu qishloqda tug’iladi. Uning otasi Abu Abdulloh o’zining ko’p yillik halol mehnati, harakati va ishbilarmonligi tufayli, Buxoroga olib

kelinib, Buxoro hukmdori No'h ibn Mansurning soliq to'lash ishlariga jalb qilingan edi. U doimo bolalarini ilmli bo'lishi uchun barcha sharoitlarni yaratar edi. U kichik Husaynni o'sha davrda mashhur bo'lgan olim Notiliyga shogirdlikka berdi. Notiliy yosh Husaynga falsafa, matematika, mantiq, astronomiya va boshqa fanlardan ta'lim berish bilan birga Suqrot, Aflotun, Ptolomey, Arastu va boshqa yunon olimlarining ta'limotini juda yaxshi o'rgatdi. Husaynning diqqatini ko'proq Arastu tortar edi. Shuning uchun ham uning asarlarini o'qish ishtiyoqi paydo bo'ldi. U ko'p izlanishlardan so'ng, Arastuning "Metofizika nomli asarini topib o'qishga muyassar bo'ldi. Ammo, 13 yoshli Husayn, kitobni 10 martalab o'qisa ham bu ilm xazinasining kalitini topa olmadi. Bir kuni Husayn kitobfurushlar oldidan o'tib borayotganida, bir kitobfurush uni chaqirib, shu kitobni oling, juda arzon, 3 dirhamga beraman,- deydi. Uni hamma kitobfurushlar ham xaridorlar ham tanir edi. U shu kitobni sotib olib qarasi, ulug' alloma 70 millat va elatlarning tillarini bilgan Al Forobiyning "Arastu metofizikasining sharhlari " ekan. U bu kitobni o'qib, "Metofizika"ni to'la o'zlashtirib oldi.

Ibn Sino tib ilmini o'rganishga juda qiziqdi. U Buqrot hakim (Gippokrat) va Jolinus (Galen) ning sodda hammabop tilda yozilgan asarlarini o'qib chiqdi. Alkmiyon kitobi asosida ilmi tashriqni o'rgandi.

Ibn Sino uchun tib ilmi unga og'ir tuyulmadi. Uning o'zi ham tarjimai holida ilmlar ichida men uchun eng osoni tib ilmidir deb yozadi. U o'zining tib ilmi bo'yicha ustozi Qamariy rahbarlik qilayotgan Buxoro shahridagi (Dorul-shifo) shifoxonasida ishlab ko'p tajribalar orttirdi. Husayn, tajribaga qattiq ishonar edi. Shuning uchun ot, qo'y, it va boshqa hayvonlarni yorib, ularning ichki a'zolarini tekshirar edi. Uning ilm fanga bo'lgan sadoqati shunchalik kuchli ediki, odamning ichki a'zolarini o'rganish uchun yangi ko'milgan o'liklarni qabrdan olib tekshirar edi. Bu o'sha davrda din ulomalari uchun kechirib bo'lmas gunoh hisoblanar edi. Ammo u o'z oldiga shunday maqsad qo'ygan edi."Ruhoniylarning la'natiga qolsam ham, imondan ajralsam ham, qiyomatda jahannam azoblariga duchor bo'lsam ham, men har narsadan voqif haqiqiy hakim bo'lmog'im kerak".

Ittifoqa Buxoro amiri betob bo'lib qoladi, ammo uni saroy tabiblari davolay olmagach, Husaynni chaqirishadi. Husayn amirni davolaydi. Shundan so'ng hukmdor tila tilagingni deganida u, menga kutbxonanggizdan foydalanishga ruxsat bersangiz deydi. Unga ruxsat berishadi. Husaynning xotirlashicha, kutbxona sandiqlarida saqlanayotgan nodir kitoblarning nomini ham hech kim bilmas edi.

U tib ilmiga oid kitoblarni o'qish bilan birga, Aflotun va Jolinus fikrlarini ham o'rgandi.

Ibn Sino o'sha davrdagi notinchliklar tufayli, Xorazmga ko'chib o'tib, ilmiy ishlarinit davom ettirdi. Keyinchalik qum barxanlarda, jazirama oftobda, tuyada yurib, Nesa shahriga kelib, Handasa ilmi bilan jiddiy shug'ullanib, Evklidni chuqur o'rgandi. U keyinchalik Nishopurda, Jurjonda ikki jahon avorasi bo'lib ijod qildi.

Ibn Sino Hamadonga kelib, Amir Shams ul -Doula e'tiborida bo'ldi. Shu erda "Al-Qonun" ning ayrim boblarini oqqa ko'chira boshladi. Ibn Sinoning eng ulug' asari "Al-Qonun" vujudga keldi. Uning bu asari X-XVI asrlarda dunyoning

barcha oliy o'quv yurtlarida asosiy darslik bo'lib xizmat qildi. U qaerda yashashidan qat'iy nazar boylik orttirishga qiziqmadi. Kasallarni davolashda, shohga ham gadoga ham bir xil munosabatda bo'ldi. O'sha davrda Ibn Sino "Shayxur-rais" ya'ni, olimlar podshohi degan unvonga sazovor bo'ldi.
U 19 yoshga to'lganda ona shahri Buxoroni qoraxoniylar bosib oldilar. Bosqinchilar shaharni butkul vayron qilib, ko'plab madaniy boyliklarni yo'qotib yuborishdi. Bu vaqtga kelib, ibn Sino iste'dodli hakim va faylasuf sifatida tanilib ulgurgandi. Ko'p o'tmay Sharqda uni «Shayx ar-rais», ya'ni «Donishmandlar etakchisi» deb atay boshladilar.
Ibn Sino juda ko'p mutolaa qilardi. U ilm cho'qqilariga mustaqil o'qib-o'rganish yo'li bilan etib bordi. Bu haqda allomaning o'zi shunday yozadi: «O'n yoshimda Qur'onni o'rgandim, badiiy adabiyotlarni o'qib chiqdim. Keyin mantiq ilmiga oid kitoblarni mutolaa qilib, mustaqil ravishda bu ilmning nozik qirralarini o'zlashtira bildim. Shundan so'ng tibbiyot ilmiga murojaat qilib, ko'plab kitoblarni o'qishga tutindim. Qisqa vaqt ichida mening tibbiyot sohasidagi bilimlarim va davolash san'atim shunday sarhadlarga etdiki, o'sha davrning eng hurmatli hakimlari mening huzurimga maslahat so'rab kela boshladilar. Men hakimlik amaliyoti bilan ham tinmay shug'ullandim va nihoyat menga insonlarni davolash ilmining darvozalari keng ochildi. Bu vaqtda endigina 16 yoshga to'lgandim. Ana shu yoshimda tunlari uyqu, kunduzlari halovat neligini bilmay faqat ilm bilan mashg'ul bo'ldim, inson tabiati o'z bilimlarini mustahkamlash va ilm yo'lida olg'a borishga qay darajada qodir bo'lsa, men ham shu darajada harakat qilib, ter to'kdim».Ibn Sinoning falsafiy jihatdan shakllanishi oson kechmadi. Dunyoga mashhur Abu Ali Husayn ibn Abdulloh Ibn Sino 1037 yilda vafot etdi.
U o'limi oldidan shunday degan:
" Jahonda qolmadi men bilmagan fan,
Na mushkil bo'lsa echdim donish ilan,
Valekin bu o'lim otliq tugunni
Echolmosdan o'tar bo'ldim jahondan". ...

U bir tasodif tufayli falsafa olamiga kirib bordi. Bu haqda o'zi shunday yozadi: «Arastuning «Metafizika» asarini o'qib chiqdim. Ammo muallifning maqsadi men uchun jumboqligicha qolaverdi. Asarni to yod bo'lguncha qayta-qayta o'qidim. Lekin baribir hech narsaga tushunmadim. Shundan so'ng bu tushunarsiz asar ekan degan xulosaga kelib, uni tashlab qo'ydim. Bir kuni muqovasozlar bozoridan o'tayotib, bir savdogarning o'z kitoblarini maqtayotganini eshitib qoldim. Do'konga yaqin bordim. Savdogar menga kitoblardan birini ko'rsatdi. Bu Abu Nasr Forobiyning «Metafizikaning asosiy qoidalari» deb nomlangan asari edi. Men jahl aralash bu tushunarsiz ilmdan hech qanday foyda yo'qligini aytib, kitobni rad etdim. Sotuvchi esa qo'yarda-qo'ymay kitobni arzon bahoda sotib olishga undardi. Axiyri kitobni bor-yo'g'i uch dirhamga sotib oldim. Uyga qaytib, kitobni mutolaa qilishga kirishdim: u menga o'z sirlarini ochdi va men falsafaga oid barcha savollarimga javob topdim».

## ABU ALI IBN SINO HIKMATLARI

Ilm - narsalarni inson aqli yordami bilan o'rganishlikdir.Haqiqatni ochinglar, to'g'ri yo'ldan yuringlar. Bir-biringizdan ilm o'rganib, kamol topishingiz uchun dil

pardasini ochib tashlanglar. Quyosh ko'rlarga ko'rinmay berkinganidek, johillarga ham dunyoda to'g'ri yo'l belgilari ko'rinmay qoladi.Kundalik rizq ko'p, qayg'uraverma. Shu bilan birga mol orttiraman, deb o'zingni ko'p qiynaverma. Chunki har kim o'z nasibasidan ortiq bitta ham don yeya olmaydi.Mol-dunyoing seni aldamasin, chunki asragan mol-dunyoing boshqalarniki bo'ladi. Ularni sarf eta olsang, o'sha seniki bo'ladi.
Boylikni topishibdi-yu aql-idrokni yo'qotishibdi. Ajabo, topgan narsalari bilan yo'qotgan narsalarining bahosi bir xilmidi? Kishi uchun eng foydali, dilni yorituvchi narsa qanoatdir. Eng zararli va nafratli narsa hirs va g'azabdir. Boshqalarda ko'rganni juda qattiq istamaslik ham qanoat hisoblanadi. Ey havoyu havasga berilgan nafs, tez bo'l. Chunki sen bir nafasning himoyasidasan. Yordam berishning go'zalligi undan kishining tasalli topishida ko'rinadi. Taroq aslida sochni tartibga solish uchun ishlatiladi-yu, ammo shu bilan birga u sochlarning ba'zilarini joyidan yulib tushiradi. Qora tuproq qa'ridan tortib, to Zuhal cho'qqisigacha bo'lgan dunyoning hamma mushkul masalalarini hal qildim. Men har qanday makr va hiyla tuzog'idan qutilib chiqa oldim-u, ammo o'lim tugunini yecha olmadim. Men ko'p joylarni kezdim va olam ahvoliga qaradim. Unda hayronlik kaftini iyagiga tirovchidan yoki pushaymonlik barmog'ini tishlab turuvchidan boshqani ko'rmadim. Odamlarning botiri kelajakdagi ishlardan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan chetlangan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir. Keksaygan odam yoshlik o'tida yonolmaydi. Agar kelajagim xayrli bo'lsa edi, mayli tinchgina, bemalol tirikchiligimni qilaverar edim. Bordi-yu agar unday bo'lmasa, ming ko'z bilan yig'lardim. Falak - juft soqqa, olam taxtasidir, ajal o'ynaydi - bizlar donai xom.

Minglab nafar ulug' zotlar borliqdan yo'qlikka ketdilar. Axir bu ulug' zotlarning birortasi ham yo'qlikdan borliqqa qaytib kelmayaptilar-ku. Har kim hodisalardan ibrat ola bilsa, boshi qattiq otga o'xshagan bu falak unga bo'ysuna beradi. Inson toki o'zini mayda gap, o'chakish, janjal, shikoyat, norozilik, ohu vohlardan ozod qilolmas ekan, u iflos va pastlik tabiatidan xalos bo'lolmaydi. Yaxshiliklarning eng foydalisi sadaqadir. Bir kishi sen bilan munosabatida xato qilsa-yu, senga uzr bayon etsa, uzrini qabul qilishni kechiktirma!Agar havoda chang va tutun bo'lmasa edi, kishi ming yil yashagan bo'lardi.

Quruq gapning o'zi hech qachon dalil bo'lolmaydi.So'zning yomoni amal qilinmay bekor ketganidir.Hayo - insonning abadiy go'zalligi va latofatidir. Hayosiz yuz jonsiz jasadga o'xshaydi.Do'stimki, dushmanimga do'stlik qilarkan, uni men do'st hisoblamayman. Zaharga qo'shilgan shakardan ehtiyot bo'l .Shodli va qayg'uli paytlarida dilini kuduratdan tozalab, sof do'stlikni saqlab qolgan kishi chin do'st hisoblanadi.

G'azab irodasi kuchli odamga ro'para kelolmaganidek, irodasi kuchsiz odamga ham ro'para kelolmaydi.Bekorchilik va aysh-ishrat nafaqat nodonlikka olib keladi, ayni vaqtda kasallikning tug'ilishiga ham sabab bo'ladi.O'z vaqtida, me'yori bilan badantarbiya qilgan odamga dard yaqin yo'lamaydi.Badantarbiya bilan mashg'ul bo'linsa, hech qanday dori-darmonga zarurat qolmaydi, buning uchun muayyan bir

tartibga rioya qilmoq ham shart.Badantarbiyani tark etgan odam aksari xarob bo'ladi, zero xarakatsiz qolgan a'zolarning quvvati zaiflashadi. Donishmandlik bizga hayot so'qmoqlarida ulug' saodatni hozirlab in'om etuvchi vositadir.

Agar do'stlik savdo-sotiqqa o'xshab, ehtiyojga qarab axtarilsa, zarurat tug'ilmagan chog'da do'stni nazarga ilmay, tashlab ketilsa, bu qanday do'stlik bo'ldi endi!

Odamlarniig botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir. Aql tarozusida tortib ko'rilmagan har qanday bilim asossizdir. Shu bois mantiq ilmini o'rganmoq juda muhim. Hakimning uch quroli bor: so'z, giyoh va tig'.Yolg'izlik halokatga olib keladi. Zero, inson o'ziga kerakli narsalarni faqat jamiyat yordamida qo'lga kiritishi mumkin. Chala bilim egasi bo'lishdan ko'ra, bilimsizlik afzalroqdir. Ruh — shamchiroqqa, bilim — ana shu shamchiroqdan taralayotgan yog'duga, Allohning zakosi — moyga o'xshaydi. Shamchiroq yonishdan to'xtamas ekan — sen tiriksan. Agar u o'chsa — sen halok bo'lasan.
Donishmandlik bizga hayot so'qmoqlarida ulug' saodatni hozirlab in'om etuvchi vositadir.

* * *

Barcha fanlarning asosiy qonun-qoidalari metafizikaga asoslanadi (metafizika tabiatdan tashqaridagi hodisalar haqidagi fan). Garchi uni eng keyin o'rgansalar-da, aslida u birinchi o'rinda turadi.

* * *

Ruh — abadiy. U jism bo'lgandan keyin ham mavjud bo'lib qolaveradi.

* * *

Ruh — jismga bog'liq bo'lmagan ravishda mustaqil fikrlaydi.

* * *

Tiriklik jismning idrok va harakatga ega bo'lmog'i demakdir.

* * *

Aql tarozusida tortib ko'rilmagan har qanday bilim asossizdir. Shu bois mantiq ilmini o'rganmoq juda muhim.

* * *

Hakimning uch quroli bor: so'z, giyoh va tig'.

* * *

Yolg'izlik halokatga olib keladi. Zero, inson o'ziga kerakli narsalarni faqat jamiyat yordamida qo'lga kiritishi mumkin.

* * *

Chala bilim egasi bo'lishdan ko'ra, bilimsizlik afzalroqdir.

* * *

Ruh — shamchiroqqa, bilim — ana shu shamchiroqdan taralayotgan yog'duga, Allohning zakosi — moyga o'xshaydi. Shamchiroq yonishdan to'xtamas ekan — sen tiriksan. Agar u o'chsa — sen halok bo'lasan.

**ABU NASR FOROBIY (870-950)**

Buyuk ajdodimiz Forobiy Aris daryosi suvining Sirdaryoga quyilish eriga joylashgan Forob qishlog'ida tug'ilib o'sdi.

Forobiyning yoshligi arab xalifaligi poytaxti Bag'dod shahrida kechdi. U bu erdagi madaniy muhitdan nafas olib, olimlar bilan yaqindan tanishdi. Shuningdek, falsafa ilmidan saboq oldi. Forobiy Arastuning hamma asarlarini bitta ham qoldirmay o'qib chiqdi. Natijada Forobiyda Arastuning g'oyalarini engillik bilan tushunib, uning o'z oldiga qo'ygan vazifalari va o'ylantirgan muammolari ko'lamini his etish ko'nikmalari paydo bo'ldi. Aytishlaricha, Forobiy Arastuning «Jon haqida» deb nomlangan asariga o'z qo'li bilan: «Men bu asarni 200 marta o'qidim», — deb yozib qo'ygan ekan.

Manbalarda yozilishicha, Forobiy dastlab qozilik qilgan. Lekin keyinchalik haqiqatni izlab topish umidida davlat ishlari va qisman mudarrislik bilan mashg'ul bo'ladi. Bir kuni yaqin kishilaridan biri Forobiyga bir qancha kitobni omonatga topshirib ketadi. Bu kitoblarning ichida Arastuning bir qancha asarlari ham bor edi. Forobiy bo'sh vaqtlarida ana shu asarlarni bir chekkadan o'qishga kirishadi. Aynan ana shu mutolaa uning qozilikni tashlashiga sabab bo'ladi. Bu tasodif Forobiyning taqdirida muhim o'rin tutadi va u buyuk olimlik maqomiga etishadi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Forobiy Arastuning «Tabiiy uyg'unlik» asarini 40 marta, «Ritorika» asarini 200 marta o'qib chiqqan.

Forobiyga Arastudan keyingi «Ikkinchi ustoz» deb nom berilgan. Chunki u xuddi Arastu kabi ilm olamining deyarli barcha jabhalariga oid qarashlarini muntazam ravishda bayon etib borgan. U buyuk shoir ham edi.

Forobiy 950 yilda hayotdan ko'z yumdi va Damashq shahrida dafn etildi.

* * *

Forobiy shunday yozadi: «Agar saltanat har qanday talabga javob bersa-yu, ammo uni donishmandlik tark etsa, mamlakat hukumatsiz qoldi, deyavering. Bu mamlakatni boshqaruvchi hukmdor ham o'z mavqeini butkul yo'qotadi. Mamlakat esa halokatga yuz tutadi».

* * *

Agar hukmdor odamlarni o'ziga bo'ysundirish, itoat ettirish, ularni butkul o'z izmiga solib, nima istasa, nimani buyursa, shuni so'zsiz bajo keltirishlari uchun jang qilsa, bu adolatsiz kurashdir. Agar hukmdor kimdandir ustun turish maqsadida jang qilsa, bu ham adolatsiz urush hisoblangusidir. Bordi-yu, hukmdor kimnidir yoki kimlarnidir o'z g'azabini qondirish yoxud shunchaki huzurlanish uchun o'ldirsa, bu harakat ham adolatsizlik sanaladi.

* * *

Fuqarolar bilan muloqot usullari va ularga ta'sir o'tkazish yo'llari sodda va tushunarli bo'lmog'i lozim. Aks holda odamlar hukmdorni tushunmaydilar yoki uning talabini bajarolmaydilar. Hukmdorlar dorini bemorning sevimli va ko'p tanovul qiladigan taomiga qo'shib ichiradigan mahoratli tabibga o'xshamoqlari lozim. Zero, mehru muhabbat va rag'batlantirishlar fuqarolar bilan muomalaning eng asosiy usulidir.

* * *

Hukumat rahbarida quyidagi 12 ta tug'ma sifatlar jam bo'lmog'i joiz: xushbichimlik, fahm-farosatlilik, o'tkir xotira, idroklilik, so'zga chechanlik, ilmga chanqoqlik, har bir

ishda me'yorni saqlay bilish, halollikka muhabbat va yolg'onga nafrat, olijanoblik, boylikka nafrat, adolatparvarlik, qat'iylik.

* * *

Bir kuni Forobiydan so'radilar:

— Kimning bilimi kuchliroq: senikimi yo Arastunikimi?

Forobiy shunday javob qaytardi:

— Men o'sha zamonda yashab, u bilan uchrashganimda va uning qo'lida tahsil olganimda edi, uning eng yaxshi shogirdlari safidan joy olgan bo'lardim

IX-XX asrlarda yashab ijod qilgan Abu Nasr Farobiyning "Hindiston dorilari va dorivor o'simliklari" "....dehqonchiligi haqida" nomli mashhur asarlarida o'z zamonasida shu sohada ma'lum bo'lgan bilimlarini jamlagan, sharhlagan va o'z fikrlarini bildirgan. Tabiatshunoslik sohasida juda keng qamrovli olim hayvonlar, o'simliklar dunyosining o'xshashlik jihatlarini sharxlagan Farobiy o'z asarlarida inson tomonidan sun'iy yo'l bilan keltirib chiqarilgan hayvon zotlari va o'simliklar navlarini birinchi bo'lib ta'riflagan Arestotelning "........" asarini sharxlagan va shu sababdan "Sharq Arestoteli" degan nomni olgan. Beruniy X-XI asrlarda yashab ijod qilgan. Uning tabiatshunoslikka oid fikrlari mashhur "Saydana" nomli yirik asarida bayon etilgan. Xususan O'rta Osiyo, Eron, Xindiston, Avg'onistonda keng tarqalgan dorivor o'simliklar xayvonlar va minerallar ulardan foydalanish usullari bayon etilgan. O'simliklar, xayvonlar va ulardan foydalanadigan dorilarning bir necha turlardagi nomlarini keltirgan. Beruniy 750 tur o'simliklardan dorilar tayyorlashni ta'riflaydi va hozirga zamon "Farmanologiya" fanining poydevorini qo'yadi. Hozir keng qo'llaniladigan abujahl tarvuzi, bodom, gulhayri, mavrak, xushbo'y igir, ko'knor, mingdevona, dalachoy, safroo't, sachrashhi, qizilmiya, ermon, yalpiz kabi dorivor o'simliklarning tuliq ta'rifini bergan va ulardan foydalanish yo'llarini keltirgan. Beruniy o'simliklarning ko'payish tezligi, nasl qoldirishi muayyaan sharoitga bog'liqligini ko'rsatadi.

Ibn Sino o'z davrining buyuk allomalaridan bo'lib, tibbiyot sohasida Markaziy Osiyoda ijod etgan va 5 jildli "Tib qonunlari" ning muallifidir. U o'z asarlarida juda ko'p dorivor o'simliklar va ulardan foydalanish yo'llarini bayon etib yozib qoldirgan. Ushbu o'simliklarning aksariyat ko'pchiligadan hozirgi vaqtga ham ilmiy tibbiyotda foydalaniladi. Odam anatomiyasiga doir bilimlarni to'plagan, turli kasalliklarni davolash yo'llarini bayon etgan.

O'simliklar xaqidagi ancha mukammal ekologik floristik va fitogeografik turli xududlardagi xayvonlar, ularning tarqalishi foydalanish xaqidagi ma'lumotlarni XV-XVI asrlarda yashab ijod etgan Zaxiriddin Muxammad Boburning "Boburnoma" asarida ko'rish mumkin. Bobur podshoh, sarkarda, shoir, faylasuf bo'lbgina qolmay u ancha bilimdon tabiatshunos ham bo'lgan. Bobur Andijondan Hindistongacha safari davomida xududlarning o'simlik va xayvonot dunyosini o'rganib batafsil ta'riflashga harakat qilgan. Kuzatilish natijalarini o'zining mashhur "Boburnoma" asari sahifalarida bayon etgan. Bu sohadagi Bobur keltirgan dalillarni mazmuniga ko'ra bir necha guruhlarga ajratish mumkin.

1. O'simliklar va xayvonlarning tarqalishi geografiyasiga oid fikrlarning bayoni.
2. O'simliklar ekologiyasiga oid fikrlar.
3. Floraviy fikrlar noma'lum o'simliklarni farqlash va ularga nom qo'yish.

4. Madaniy o'simliklarning nomlari va o'sish sharoitiga ko'ra guruhlarga bo'lish.

"Boburnoma" da quyidagicha fikrlar berilgan.............................bunda Bobur tobulg'u va ayiq o'ti misolida faqat chegaralangan maydonlardagina o'sadigan va boshqa joylarda uchramaydigan o'simliklarni ta'riflagan va ittifoqo hozirgi qabul qilingan "Endem" tushunchasiga asos solgan. "Boburnoma" ning 124-sahifasida qabul yaqinidagi Dasht Shayx da o'simliklarning rang-barangligi ta'riflangan...........

Bu holda ham Bobur lolalar, ularning xillari va ayrimlarining faqat chegaralangan joylardagina o'sishini ta'riflagan.tashqi belgisiga ko'ra noma'xlum turga "Lolai gulbo'y", "Sadbarg lola" kabi nomlar bilan atagan. Lolalarning ko'plab g'ayrimuqarrar xillarini farq qilgan.

Bobur o'ziga ma'lum bo'lgan barcha madaniy o'simliklarning o'sish sharoitiga ko'ra 2 ta ekologik guruhga ajratgan.

1. ...........o'simliklar issiqni va namni sevuvchilar. Bularga amalbed (mandarin) limon, apilsin, norunj, turunj, anor, anjir, shakarqamish, (naytinar), xurmo kabilarni kiritadi.

2. Sardseriy o'simliklar-sovuqqa chidamlilar. Bular qatoriga olma, o'rik, olcha, shaftoli, qora emish kabilarni kiritadi.

Mevaning ta'mi uning o'sish sharoitiga bog'liqligini misollar bilan ko'rsatgan. Bu fikrlar botanikaning bir bo'limi hisoblangan o'simliklar ekologiyasiga oid fikrlardir.

Shunday qilib, Bobur o'zining mashhur asari "Boburnoma" da Markaziy Osiyo xududida o'sayotgan o'simliklar va xayvonlar haqida bir qator fikrlarni yozib qoldirgan va bu ma'lumotlar ancha muhim ilmiy ahamiyatga ega va o'simliklar va xayvonlar dunyosining o'rganish tarixida o'zining o'rniga ega.

O'zbekiston xududida rejali botanik va zoologik ilmiy izlanishlar XIX asrning o'rtalari va XX asr boshlarida bir qator Rossiyalik olimlar tomonidan olib borildi. Bu izlanishlar orasida O.Fed Chenko, B.Fedchenko, Korjenskiy, Leman, Knorring, Borshov va boshqalarning botanik ma'lumotlari dastlabki floraviy ma'lumotlar edi. Ammo O'rta Osiyo va O'zbekistonda botanik va zoologik ilmiy tekshirish ishlari Toshkentda O'rta Osiyo davlat Universiteti (hozirgi O'zbekiston miliy universiteti) tashkil etilishi bilan bog'liq. Universitetning botanika kafedrasida E.P.Korovin raxbarligida ko'plab etuk botanik mutaxassislar tayyorlanadi va ular mamlakatimizning turli xududlarida florisitik O'z RFA "Botanika" IIChM da ilmiy ishlari bir qator yirik yo'nalishlarda olib borilmoqda.

Axad. E.P.Korovin boshlab bergan asoslagan ekologiya faktrlar klassifikatsiyasi va O'rta Osiyo o'simliklar qoplanishining rivojlanish tarixi yo'nalishida olib borilgan ilmiy ishlar solmog'i ancha katta. O'simliklar ekologiyasi bo'yicha ilmiy ishlarning natijalari sifatida "Teorebichesniya osnovo' i metodo' fitomemioratsiya pusto'nno'x …………Yugo-Zapatnogo ko'zilkuma", "Adantatsiya kormalo'x rasteni i usloviya aridnoy zona Uzbekistana" nomli yirik ilmiy asarlar yaratildi va ularning mualliflari D.K. Saidov, I.F. Momotov Davlat mukofotiga, S.G. Golovchenko va A.Rasulov Beruniy nomli Respublika mukofotiga sazovor bo'ldilar.

Botanik geografiya maktabining yaratilishi, balandlik pog'onalarining ajratilishida yangi ................qo'llanilishi anad. Q.Z. Zokirov nomi bilan bog'liq cho'l, adir, tog', yaylov, balanlik pog'onalarining nomsiklaturasi asoslandi. Anad. Q.Z.Zokirov, P.Q.Zokirov bilan birgalikda O'rta Osiyo misolida er shari o'simliklar qoplami

tinologiyasi printsiplarini ishlab chiqishda va u dunyo botaniklari hamjamiyati tomonidan maqullandi. Q.Z.Zokirov, M.M. Nabiev, U. P.Prashtov. T.A.Adilov, A.M. Maxmudovlar tomonidan ilk bor 157 ta yangi tur 3 ta turkum va bir qator noyob yo'qolish arafasida turgan o'simlik turlari aniqlandi.

Uzoq ilmiy tiklanishlar natijasi o'laroq 1962 yilda 6 jildli "Flora O'zbekistana" monografiyasi yozib tugallandi va nashr etildi. Karta xizmatlari uchun Q.Z.Zokirov, A.N.Vvedenskiy boshliq bir gurux olimlar Beruniy nomli davlat mukofotiga sazovor bo'lishdi.

1968-1993 yillarda 10 jildli "Opredelitel rasteniy Sreney Azii" nomli yirik anio'lagich yozib nashr etildi.

O'zbekiston Respublikasi florasining "Qizil kitob" i tuzildi va nashr etildi. Uning III-nashriga 305 tur o'simliklar va zamburug'lar kiritildi.

O'zbekistonda faqat florastik va xomasheseunoslik emas, balki chuqur geobotanik va o'simliklar qoplamini o'rganish bo'yicha ham muhimishlar qilindi. Natijada "Rastitelno'y pokroe Uzbekistana" nomli 4 jildli ......asar yaratildi. (1971-1984) tuzishda Botanika instituti xodimlaridan R.D.Melnikov, P.K.Zokirov, N.I.Akjigitova, Z.A..... R.S.Vernik, I.F.Momatovlar faol ishtirok etishdi.

O'zbekistonda paleobotanika tekshirishlar R.X.Xudoyberdiev va N.P. Gomolitskitlarning nomi bilan bog'liq. Ularning izlanishlari bo'yicha 3 jildli "Paleobotanika Uzbekistana" (1968-1981) monografiyasi nashr etildi.

O'zbekiston FA Botanika institutining bog'i yirik ilmiy markaz hisoblanadi. Unda akad. F.I.Rusanov tomonidan asoslangan turkumlar komplenslari bo'yicha introduktsiya va iqlimlashtirirish metodi asosida ilmiy ishlar olib borilmoqda. Ilmiy ishlar natijasida 12 jildli "Deprologiya Uzbekistana" kapital asarlarda bayn etilgan.

O'zbekistonning tuban o'simliklarini o'rganishda akad. A.M.Muzaffarov boshliq olimlarning xizmatlari beqiyosdir. Ko'k-yashil va Yashil suvo'tlari florasi, ayrish biologik xususiyatlari o'rganib, ishlab chiqarishga joriy etishga tavsiya qilingan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda botanik ilmiy izlanishlar quyidagicha muhim yo'nalishlarda olib borish rejalashtirilgan.

1. O'zbekiston florasi va o'simliklar qoplamini undan ratsional foydalanish maqsadida kompleks o'rganish.

2. Respublikamiz har xil geografik zonalari o'simliklarining strukturaviy, funktsional, adaptiv parametrlarinin o'rganish. Foydali istiqbolli o'simliklarning reproduktiv biologiyasini o'rganish.

3. Orol dengizi qurib borishi munosabati bilan cho'llanish sodir bo'layotgan xududlarni fitomolioratsiya qilish uchun issiqqa va sho'rlanishga chidamli o'simliklarni tanlash va ularning biologiyasini o'rganish.

4. Noditr yo'qolib borayotgan va endem turlarni aniqlash, ularning kadastrini tuzishva muhofaza choralarini ishlab chiqish.

5. Mahalliy va o'zga floralar o'simliklarini introduktsiyalash va iqlimlashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqishni rivojlantirish.

6. Xalq xo'jaligida va tabiat muxofazasi sohalarida foydalanish maqsadida suvo'tlari, zamburug'lar va yuksak suv o'simliklarini kompleks o'rganish.

So’nggi yillarda O’zbekistonda Biotexnologiya sohasida yirik izlanishlar olib borilmoqda. Umuman biotexnologiya usullari bilan olingan mahsulotlardan ota-bobolarimiz azaldan foydalanib kelishgan. Qatiq, bo’za, xamirturush, meva sharbatlari, olma va uzumdan tayyorlangan sirkalar an’anaviy texnologiyalar yo’li bilan mikroorganizmlar yordamida tayyorlangan.

Hozirgi vaqtda biokimyo, mikrobnologiya, genetika fanlarining rivojlanishi bilan o’ta nozik va umuman zamonaviy biotexnologiyaga asos solindi. Bu biotexnologiya mikroorganizmlar sanoat miqyosida ko’paytirish, ularning biomassasidan insonlar uchun zarur bo’lgan moddalar ilish, fermentlar,injenerligi, genetik injeneriya va hujayra injeneriyasi yo’nalishlarida rivojlantirilmoqda.

Respublikamizda Prezident I.A.Karimov tomonidan Fanlar Akademiyasi tarkibida Genetika institutining tashkil etilishi, gen injenerligi taraqqiysini belgilovchi “Geninlar” ilmiy programmasini tasdiqlanishi mamlakatimizda gen injenerligiga moslashgan biotexnologiyalar yaratish imkonini berdi. Bu sohada qilingan kashfiyotlardan akad. J.H.Hamidov, s,Jataev, f.Muhammadxonova, Sh.S.Azimova, R.S.Muhammedov, O.T.Odilova-larning erishgan yutuqlari diqqatga sazovordir.

O’ZFA tarmoq institutlarida, ayniqsa Genetika, Mikrobiologiya ilmiy tekshirish institutlarida biotexnologiya bo’yicha ilmiy tadqiqotlar markazlashtirilgan.

Qishloq xo’jalik chiqindilaridan biotexnologiya usullari bilan oziqa moddalar olish, organik o’g’itlar tayyorlash; mikroblar yordamida insonlar uchun oziq-ovqat moddalarini olish; atrof-muhit tozzaligini saqlashda bitoexnologiya jarayonlaridan foydalanish usullarini ishlab chiqish; tuproq unumdorligini mikroorganizmlar ishtirokida oshirish; plastmassalar o’rnini bosadigan biopolimedlar sintez qilish; biogaz ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish; zarakunandalar va o’simlik hamda hayvonlar kasalliklariga qarshi kurash choralarining ilmiy asoslarini yaratish biotexnologiya oldida turgan muhim vazifalardir.

O’qitish va tarbiyalash jarayoni dunyo fani rivojlanishi darajasi va yutuqlari bilan hamnafas bo’lmog’i zarur. Maktablar uchun yaratiladigan darsliklar va qo’llanmalar shular hisobga olgan holda yoziladi.

Hozirgi mavjud darsliklarda mavzularni yoritishda botanika, zoologiya va biotexnologiya sohasidagi so’nggi yutuqlardan foydalangan. O’zbekiston Fanlar Akademiyasining tarmoq institutlari olimlarining erishgan yutuqlaridan misollar keltirilgan.

Chunki o’quvchi fan rivojlanishining hozirgi holati va uning rivojlanish istiqboli va kelajagini bilmog’i lozim. Buning kelgusida kasb tanlashgi va hayotda o’z o’rnini topishiga, komil inson bo’lib etishuviga yordam beradi. Uning bunga erishuvi biologiya o’qituvchisining fidoyiligiga va fan yutuqlaridan foydalanib dars o’tishiga bog’liq.

Buni amalga oshirishda o’quvchilarni oliy maktablar, ilmiy tekshirish institutlar laboratoriyalariga ekskursiya uyuushtirish, etuk olimlar bilan uchrashuvlar tishkil etish va ularning ijodlari bilan tanishtirish ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa madaniy o’simliklar novlari, hayvon zotlarini etishtirgan muallif olimlar bilan, darsliklarning mualliflari balin bo’lgan uchrashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi.

**Mustahkamlash: mavzu bo’yicha savollar**

| Savollar | Javoblar |
|---|---|
| 1.Farobiyning tabitshunoslik sohasidagi ishlari nimalardan iborat?<br>2.Beruniyning o'simlik va hayvonot olamini o'rganishga oid fikrlari?<br>3. Bobur o'ziga ma'lum madaniy o'simliklarni qanday guruhlarga ajratiladi?<br>4. Boburning o'simliklar haqida bergan ma'lumotlarini qanday guruhlarga ajratsa bo'ladi?<br>5. O'zbekistonda rejali biologik ilmiy tekshirishlar qachon boshlandi?<br>6. O'zbekistonda biologiya sohasida qaysi ilmiy tekshirish institutlarini bilasiz?<br>7. O'zbekiston o'simliklar dunyosini o'rgangan yirik olimlar.<br>8. O'zbekiston hayvonot dunyosini o'rgangan yirik olimlar.<br>9. Biotexnologiyaga oid ilmiy ishlar O'zRFA ning qaysi institutlarida va | 1.O'simlik va hayvonlarning o'xshashlik va farqlarini ta'riflang. Madaniy o'simliklar va uy hayvonlari sun'iy yo'l bilan keltirib chiqarilganini aytgan. Aristotelning "Metofizika" asarini sharhlagan, shu sababdan uni "sharq Aristoteli" deb atalgan.<br>2. "Saydana" asarida 750 tacha dorivor o'simliklardan dori tayyorlash usullarini ko'rsatgan va "Farmakologiya" fanini asoslagan. O'simlik va hayvonlarning ko'payish tezligi va tarqalishi muayyan sharoitga bog'liq deb tushuntirgan. Tabiiy tanlanishga oid ayrim fikrlarni bergan.<br>3. bobur o'ziga ma'lum madaniy o'simliklarni sardseriy va garmseriy deb 2 guruhga ajratgan.<br>4. "Boburnoma" da o'simliklarni o'rganishga doir fikrlarini o'simliklar geografiyasi, florani o'rganish, o'simliklar ekologiyasiga oid fikrlar deb guruhlarga ajratish mumkin.<br>5. O'zbekiston o'simliklar va hayvonot dunyosini rejali o'rgani Toshkent O'rta Osiyo Davlat universiteti tashkil etilgandan so'ng boshlandi (1920 y.)<br>6. O'ZFA Genetik instituti, Mikro-biologiya instituti, "Botanika" instituti milliy universitetida.<br>7. E.P.Korovin, Q.Z.Zokirov, P.Q.Zo-kirov, A.P.Vvedenskiy, I.I.Granitov, O'.P. Pratov, M.Orifxonova, A.M.Mu-zaffarov, M.G.Popov va boshqalar.<br>8. Mashhur zoolog olimlar: A.L.Brodskiy, D.N.Kashkarov, R.N.Men-lenburtsev, T.Z.Zohidov, A.K.Sagitov, A.T.To'laganov, A.M.Muhammedov va boshqalar.<br>9. J.H.Hamidov, S.Ekataev, F.Mu-hammadxonova, Sh.S.Azimova, R.S.Mu-hammedov, O.T.Odilov va boshqalar. |

| | |
|---|---|
| qaysi ilmiy programma isosida olib borilmoqda? | |

**XULOSA**

XVIII asrning mashhur tabiatshunosi K.Linney Ibn Sinoni hurmatlab, tizimgullilar oilasiga kiruvchi doim yashil bo'lib turadigan o'simlikka Avitsenniya degan nom berdi.

Ibn Sino haqida mashhur Karl Linney shunday yozadi. "Uning ta'limoti bitmas-tuganmas chashma, uning o'zi esa abadiy yashnab turgan gulshan".

Bugungi kunda Ibn Sinoning nomiga Buxoro Davlat tibbiyot instituti va Afshonada muzey, Buxoro shahrida unga atab haykal qo'yilgan.

1980 yilda YuNESKO tashkiloti Ibn Sino tavalludining 1000 yilligiga bag'ishlab konferentsiya o'tkazdi.

O'qituvchi dars jarayonida Evropa mamlakatlarida tabiatshunoslik turg'unlikda bo'lgan davrda Markaziy Osiyoda tabiiy fanlar rivojlanganligini ta'kidlab o'tadi. O'rta asrning mashhur olimi Abu Ali ibn Sino tibbiyot fani rivojlanishiga qo'shgan hissalari o'quvchilar ongida milliy qadriyatlar taraqqiy etishiga asos bo'ladi.

Akademik Ibrohim Mo'minov Ibn Sino va Sharq mutafakkirlarining ilmiy, ma'naviy me'rosini yoshlarga etkazishda muhim rol o'ynadi.

Uyga vazifa:Ibn Sino hayotiga oid ma'limotlar toppish.

**MAVZU:BIOLOGIYA DARSLARI UCHUN DIDAKTIK MATERIALLAR TAYYORLASH(GERBARIYLAR)**

**Mashg'ulot maqsadi: didaktik materiallar tayyorlash(gerbariylar) haqida ma'lumot berish.**

**Mashg'ulot shakli:**Nazariy

**Mashg'ulotning borishi**

**Tashkiliy qism: Salomlashish ,davomatni aniqlash.**

**O'tilgan mavzu takrori:**
**-Ibn Sino nechanchi yilda tug'ilgan.**
**--Ibn Sinoning fanga qo'shgan hissasi.**
**--Ibn Sinoning hikmatlari.**
**-Ozbekiston yirik hayvonlarini o'rgangan olim.**

## MASHG'LOTNING MA'RUZASI:

Odatda biologiya kabinetidagi ko'rgazmali qurollar turi-tuman bo'ladi. Ularning ko'pchiligi magazinlardan tayyor holda sotib olinadi. Ba`zi ko'rgazmali qurollar o'qituvchi rahbarligida o'quvchilarning o'zlari tayyorlashlari ham mumkin. Gerbariy, kollektsiya tayyorlash, tablitsa, diagramma yoki sxema chizish kabi ishlarni ayrim o'quvchilar hech qanday qiyinchiliklarsiz bajarishlari mumkin. Biroq ho'l preparatlardan mulyaj yasashni ayrim o'quvchilarga tavsiya etib bo'lmaydi. Bunday ko'rgazmali qurollarni o'quvchilar biologiya kabinetida gruppa holda tayyorlaydilar. Ko'pincha maktablarda tabiiy shaklini, hajmini tasvirlaydigan ko'rgazma quro yo'q. Shuni e`tiborga olib, uni maktablarda keng masshtabda tayyorlashga e`tiborni kuchaytirish zarur.

**O'simlikning tabiiy holatini buzmagan holda qumda quritish usuli.**

O'simlikning tabiiy holatini buzmagan holda qumda quritish juda qiziqarli bo'lishi bilan birga ko'p mehnat talab qiladi. Odatda uni qog'oz orasiga olib, presslab quritilganda o'simlik yassilanib tabiiy ko'rinishini yo'qotadi. Qumda quritilganda esa o'simlikning tabiiy shakli va ko'rinishi saqlanadi. Bu uning gerbariylariga nisbatan afzalligidir.

O'simlikning tabiiy ko'rinishida quritish uchun avvalo tunuka yoki qalin kartondan quticha (korobka) tayyorlanadi. Qutichaning bo'yi 40-60 sm, eni 20-25 sm bo'lishi kerak.

Qumni suvga solib unga aralashgan loyqa va organik moddalar belcha yoki kurakcha bilan aralashtirib, qayta-qayta yuviladi. Bu ish loyqa qolmaguncha davom ettiriladi. Qum sof holga kelguncha quritiladi va tunuka tog'oraga solib qizdiriladi (elektr yoki gaz plitasida), natijada loyqa va organik moddalardan musaffo bo'lgan toza qum kristallari qoladi. O'simlikni quritish uchun tayyorlab qo'yilgan qutichalar tagiga tekis qilib qizdirib sovitilgan qum solinadi, ustiga o'simlik qo'yiladi, so'ng uchi 1 mm kattalikda tegishli qalin qog'oz voronka orqali o'simlik ustiga qum bir tekis solinadi.

O'simlik qum bilan ko'milgandan keyin quticha iliq joyga olinib, shu joyda 2-3 kun saqlanadi. Qumga ko'milgan o'simlik shu fursat ichida shaklini yo'qotmagan holda quriydi.

O'simlikni qumdan chiqrib olish uchun quticha $45^0$ qiya qilinadi va ohista silkitish bilan qumi tushiriladi. Shu tariqa o'simlik yarim ochilgandan keyin ustidagi qolgan qumi uchi ingichka shisha nay yordamida puflab tushiriladi. Qumdan tozalangan o'simliklarni darhol yog'och taglikka o'rnatib, ustidan oyna quticha yopiladi.

**O'simlik va uning qismlarini konservalash.**

Botanika o'qitishda laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazish uchun konservalangan materiallar alohida ahamiyatga ega. Shu maqsadda ildiz, ildizpoya, ildizmevalar, poya, kurtak, barglar, gul va mevalar, zamburug'larning meva tanalari saqlanadi. Konservalash uchun turli eritmalardan foydalaniladi:

**5% li sirka kislotadan konservalash.**

Odatda 5% li sirka kislotasida pomidor, bodring, garimdori, uzum, olma, nok, olcha, o'rik mevalari konservalansa, ularning tabiiy ranglari uzoq vaqtgacha o'zgarmay saqlanadi;

**Formalin, spirt, glitserin va suv aralashmalarida konservalash.**

Bunday konservalash uchun oldindan ikkita alohida-alohida eritma tayyorlanadi. Birinchi eritma uchun 40% li formalindan 30 g olinib, uni 300 ml distillangan suvda suyultiriladi. Ikkinchi eritmani tayyorlash uchun 100 ml distillangan suvga 96 % li spirt va 1,5 g glitserin olib aralashtiriladi. O'simlikni konservalash oldidan har ikkala eritma bir-biriga aralashtiriladi. O'simlik yoki uning qismlari ustiga bu aralashmani qo'yishdan oldin o'simlik 24 soat davomida 2% li mis ko'porosi eritmasiga solib qo'yiladi. Shundan keyin o'simlik eritmadan olinib, konserva bankasiga solinadi va ustiga yuqorida keltirilgan eritmalarning aralashmasi qo'yiladi, bankaning og'zi havo kirmaydigan qilib berkitiladi. Shunday qilib konservalangann mevalarning rangi va sirtidagi mum g'ubori yaxshi saqlanadi.

**Formalinda va sirka kislota eritmasida konservalash.**

Buning uchun 1-2 % li formalin eritmasiga 5 % li sirka kislotasi eritmasi quyiladi. Tayyor eritma shisha bankadagi o'simlik ustiga qo'yiladi va og'zi havo kirmaydigan qilib shag'amni eritib bekitiladi.

**Qalpoqchali zamburug'larning meva tanalarini konservalash.**

Buning uchun qo'y yog'i olib uni suv hammomida eritiladi va ikki qavat marli yoki xom surupdan o'tkazib suziladi, ungi naftalin yoki kamfora qo'shiladi. Qalpoqchali meva tanachalarini konservalash oldidan to'nkacha qismi uchidan ozgina kesib tashlab tekislanadi va tashqarida qolishi shart. Shundan keyin yog'ni suv hammomida eritib (qaynatmasdan) unga zamburug'larning meva tanasi botiriladi (tashqarida qolgan cho'p uchidan ushlab) meva tanacha yog' ichiga botirilgach undan juda ko'p havo pufakchalari chiqa boshlaydi. Zamburug'dagi havo batamom havo chiqib ketgach, o'rniga yog' to'lgach pufakchalar ajralmay qoladi. Demak, meva tana konservalandi. Meva tana yog'dan chiqarilib sovitib marli bilan artiladi. Uni yog'och taglikka o'rnatib ustidan oynadan yasalgan quticha to'nkarib saqlanadi.

Sabzavot yoki mevadan mulyaj yasash. Kerakli jihozlar:

1. Gips yoki albastr.
2. Parafin.
3. Gips qorish uchun idish. (rezina koptokning yarmi)
4. Karton qog'oz.
5. Tabiiy ob`ekt.
6. Alif.
7. Xar xil kattalikdagi cho'tkalar.
8. Suv hammomi yoki kichik kastrul.
9. Ximiyaviy stakanlar.
10. Kristallizator yoki kichik chelakcha.
11. Vazelin va solidol.
12. Xar xil rangdagi yog'li bo'yoq.
13. Oddiy oyna 15-20 sm.
14. Shtativ va preparoval nina.
15. Nina va ip, qaychi va skal pel .
16. Elektro plita.
17. Kantselyariya yelimi.

Kerakli narsalan to'plangach qolib tayyorlashga kirishiladi. Uni quyish uchun karton qog'ozdan quticha yasaladi. Odatda qutichaning katta kichikligi tabiiy ob`ektning hajmiga bog'liq bo'ladi. Masalan uzunligi 13,5 sm yo'g'on qismi 4 sm bo'lgan sabzidan qolip yasash uchun kartondan 26,5 sm uzunlik, eni esa 17 sm keladigan bo'lak qirqib olinadi. Bu kartonning to'rt chekkasini markazga tomon 5 sm uzunlikda qirqilib, ularni bir tomonga qaratib bukiladi. Kartonning bukilgan to'rt tomoni bir-biri bilan yelimlanadi. Natijada tavsiya etilgan sabzi qolibi tayyor bo'ladi. Qolibning qutichadan oson ko'chishi uchun unga solidol yoki vazilin surtiladi. Idishga oz-ozdan gips sepib suv yordamida qorishma tayyorlanadi (qaymoq holigacha). Tayyor qorishma qutichaning yarmigacha quyiladi va uning o'rtasina tabiiy ob`ekt sabzi botirilib qo'yiladi, bir oz silkitiladi. 10 minut quritiladi. So'ng uning ustiga solidol vazilin surtiladi va yuqoridagi usulday qorishma tayyorlanib quticha to'lguncha quyiladi, silkitiladi. 10-15 daqiqa o'tgach karton qutichadan qolib ajratiladi. Ho'l qo'l bilan tayyorlangan qolibning yarim pallasi ajratiladi va undan sabzi olinadi. Hosil bo'lgan qolibning bir chekkasidan skalpel yordamida qalam kengligida teshikcha ochiladi teshikcha tayyor bo'lgach tabiiy ob`ekt o'rniga vazelin yoki solidol surtiladi. Qolipning osti va ustki tomonlarini bir biri bilan jipslashtirib yo'g'on ip bilan bog'lanadi. So'ngra 1 sm uzunlikdagi ingichka cho'pni o'rtasidan ip bilan maxkam bog'lab teshikcha orqali ob`ekt olingan bo'shliqqa tushiriladi. Qolip tayyor bo'lgach idishga parafin maydalab solinadi va suv hammomi yoki kostryul`kaga suv quyib elektro plitada eritiladi. Parafin erigach, qolip teshigidan tabiiy ob`ekt olingan bo'shliqqa asta-sekin quyiladi. Qolip ichidagi havoni tashqariga chiqarish uchun uni 4-5 marta silkitiladi. Odatda parafin yoki stearin qotish protsessida bir oz kichrayadi. Shu sababli teshikchadan qolip ichidagi bo'shliq to'lguncha dam-badam parafin yoki stearin quyib turiladi. Suyuq parafin qolip ichida bir sutka davomida qotiladi. U butunlay qotgach, qolipning ostki va ustki bo'laklari bir-biridan ajratilib, uning ichidagi parafin quymasi olinadi va notekis joylari tabiiy ob`ektga qarab skal pel yordamida taroshlanadi. Shundan keyin parafin qyma uzun paraval ninacha sanchilib, shtativga mahkam qilib o'rnatiladi va uni bo'yashga o'tiladi. Zarur rang tayyorlash va qo'ymani bo'yoshga alohida e`tibor beriladi. Aks holda tayyorlangan mulyajning rangi, tashqi ko'rinishi tabiiy ob`ektga o'xshamay qolishi mumkin. Shuni e`tiborga olib tabiiy ob`ekt rangiga mos bo'yoqlar tanlanadi. Agar buning iloji bo'lmasa, turli bo'yoqlar bir-biri bilan aralashtirilib, zarur rang hosil qilinadi. Bu o'rinda ko'proq ko'k, sariq, yashil bo'yoqlardan foydalaniladi. Mulyaj rangining uzoq vaqt saqlanish uchun chang kirmaydigan shkafda bo'yog'i quriguncha saqlanadi. Mulyaj qurigach parafinga botirib olinadi. Tayyor mulyajni issiq joyda saqlamaslik kerak.

## Mustahkamlash:

-O'simlikni tabiiy holatini buzmagan holda qanday quritiladi.

-- o'simlik va uning qismlari qanday konservalanadi.

-- Qalpoqchali zamburug'larning meva tanalariqanday konservalanadi

**Uyga vazifa**: O'simlikni tabiiy holatini buzmagan holda quritib tayyorlab kelish.